

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

**RESPUBLIKA O'RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI ANDIJON
FILIALI**

**“Zamonaviy jarrohlikda hamshiralik ishi” yo'nalishidan
Nazariy va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha**

O'QUV USLUBIY QO'LLANMA.



Andijon shahar.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

**RESPUBLIKA O'RTA TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI
ANDIJON FILIALI**

«TASDIQLAYMAN»

Respublika o'rta tibbiyot va
farmatsevtika xodimlari malakasini
oshirish va ularni ixtisoslashtirish
markaz direktori

L.X.Musadjanova

«26» sentabr 2024 y

«KO'RIB CHIQILDI»

Respublika o'rta tibbiyot va
farmatsevtika xodimlari malakasini
oshirish va ularni ixtisoslashtirish
markazi Qo'qon filiali direktori

M.T.Xakimova

«26» sentabr 2024 y

**“Zamonaviy jarrohlikda hamshiralik ishi” yo'nalishidan
Nazariy va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha
O'quv uslubiy qo'llanma**

(Respublika y'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazlari va uning filiallari tinglovchilari uchun o'quv-uslubiy
qo'llanma)

ANDIJON – 2024 yil

Tuzuvchilar:

- G.I.Sodiqova** Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filiali o'qituvchisi
- X.T.Matmusayev.** Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filiali soatbay o'qituvchisi

Taqrizchilar:

- D.Sh.Xojimatov** 2- fakultet Gospital jarrohlik kafedrası t.f.n dotsent
- M.R.Aliboyev** 2- fakultet Gospital jarrohlik kafedrası t.f.n katta o'qituvchisi

O'quv dasturi Respublika O'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filial pedagogik Kengashida kO'rib chiqilgan

« 3 » dekabr 2024 y. bayonnoma № 6

Pedagogik kengash raisi:



G.A.Turaxodjaeva

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TIBBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI
RESPUBLIKA O'RTA TIBBIY OT VA FARMATSEVTIKA XODIMLARINI MALAKASINI OSHIRISH
VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI ANDIJON FILIALI
"ZAMONAVIY JARROXLIKDA XAMSHIRALIK ISHI" YO'NALISHIDAGI NAZARIY VA AMALIY
MASHG'ULOTLAR O'QUV USLUBIY QO'LLANMAGA
TAQRIZ


Mazkur o'quv uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4310-son va 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Sog'likni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i ijrosini ta'minlash doirasida yaratilgan.

"Zamonaviy jarroxlikda xamshiralik ishi" yo'nalishiga o'quv uslubiy qo'llanmaning maqsadi: jarroxlik yo'nalishda faoliyat olib borayotgan hamshiralarni har tomonlama yetuk, ijtimoiy-gumonitar, umumkasbiy va mutaxassislik fanlari bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga erishish, ular faoliyatini yanada takomillashtirish, "Zamonaviy jarroxlikda xamshiralik ishi" fanidan yangi nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustaxkamlash va chuqur bilimlarni egallashga qaratilgan.

Ushbu o'quv uslubiy qo'llanmada asosan amaliy mashg'ulotlarga e'tibor qaratilgan unda sterillikni nazorat qilishni, antiseptika vositalarini tayyorlash va saqlashni, sanitariya tozalash ishlarini o'tkazish, arterial qon bosimini o'lchash, pulsni aniqlash, gastrastoma orqali ovqatlantirish, umumiy taxlil uchun siydikni yig'ish, qon ketishni vaqtinchalik to'xtatish, xuqnalar ko'yish, me'dani yuvish texnikasi jumladan: terminal xolatdagi bemorlarni parvarishlash, yordamga muhtoj bemorlarni zamonaviy tashxislashga tayyorlash, yordam ko'rsatish va parvarishi, utkir nafas yetishmovchiligida bemorlar parvarishi, utkir yurak kon-tomir yetishmovchiligida birinchi yordam kursatish, utkir buyrak yetishmovchiligi, favqulotda xolatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish, ularni parvarishlash mavzularini qo'shilishi dasturning qiyimatini yanada oshiradi deb hisoblayman.

D.Sh.Xojimatov

2-fakultet Gospital jarroxlik
kafedrası t.f.n dotsent



**Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va
ixtisoslashtirish markazi Andijon filiali o'qituvchisi Sodiqova.G.I. ning
"Zamonaviy jarrohlikda hamshiralik ishi" yo'nalishidan Nazariy va amaliy
mashg'ulotlar bo'yicha uslubiy qo'llanmasiga**

Taqriz.

Ushbu o'quv uslubiy qo'llanma "Zamonaviy jarrohlikda hamshiralik ishi" yo'nalishi o'quv dasturi asosida yaratilgan bo'lib, o'quv uslubiy qo'llanma jarrohlik bo'limi hamshiralari, operatsion hamshiralari, bog'lov honasi hamshiralari uchun mo'ljallangan.

O'quv uslubiy qo'llanmada "Zamonaviy jarrohlikda hamshiralik ishi" yo'nalishi bo'yicha mavzular to'plami, Tinglovchilar bilishi va bajara olishi kerak bo'lgan muolajalar to'plami, ko'nikmalar, shifokorgacha bo'lgan shoshilinch yordamlar qisqa va tushunarli qilib berilgan. Tinglovchilarni doimiy ravishda amaliy bilimlarini shakllantirishga, takomillashtirishga, rivojlantirishga yo'naltirilgan.


Ushbu o'quv uslubiy qo'llanmada xirurgik davolash xususiyatlari, aseptika va antiseptika, operatsiyadan oldingi va keying davr, desmurgiya, qon ketishi va to'xtatish usullari, qon guruxi va rezus faktorni aniqlash va shikastlanish sindromi bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni batafsil keltirilgan va talabalarni bilimlarini mustahkamlash maqsadida tuzib chiqilgan.

Tibbiyot sohasida faoliyat yuritayotgan barcha tibbiy xodimlar uchun qulay bo'lgan ushbu qo'llanma, yetuk va malakali kadrlarni yetishtirishda, amaliy mehnat faoliyatida kerakli bo'lgan muolajalar dasturi bo'la oladi. Ushbu o'quv uslubiy qo'llanma barcha yo'nalishdagi talabalarga ta'lim jarayoniga tadbqiq etish uchun tavsiya etiladi.

M.R.Aliboyev



2- fakultet va gospital jarrohlik kafedrası
t.f.n. katta o'qituvchisi



Kirish.

Xirurgiya fani tibbiyotning muxim tarmoqlaridan biri hisoblanib, hozirgi kunda jadallik bilan rivojlanib kelmoqda, xususan murakkab operatsiyalar ham hozirgi kunda respublikamizda ham amalga oshirilmoqda. Xirurgiya fani orqali Tinglovchilar shoshilinch holatlar, qon ketish, shikastlanishlar, shok, koma holatlari haqida bilim va ko'nikmaga ega bo'ladilar. Bu fanni to'liq o'zlashtirish orqali bunday holatlarda 1-yordam ko'rsatish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

Ushbu o'quv uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim Vazirining 2020-yil 4-sentabrdagi 465-sonli „Professional ta'lim muassalari uchun o'qitish materiallari to'plamlarini yaratishni tashkil etish“ to'g'risidagi qaroriga muvofiq ishlab chiqildi. Qarorga muvofiq tarzda o'quv mundarija, kirish qismlaridan iborat. Har bir mavzu mavzular nomi, rejasi, mavzular mazmuni yoritib berilgan.

Ezgu maqsadlarimizning samarasi avvalo yuqori malakali, mustaqil fikrlay oladigan yuksak madaniyatli kadrlarni tayyorlashdan iborat. Professional ta'limni tashkil etish, ta'lim mazmunini belgilash, ularni maxsus dasturlar, o'quv qo'llanmalar bilan ta'minlash to'g'risidagi qarorlar ijrosini bajarish, davr talabiga javob bera oladigan xodimlarni tayyorlashda, Tinglovchilarga qulaylik yaratish, bilim olish jarayonini yanada osonlashtirish maqsadida ushbu o'quv qo'llanma yaratildi.

Professional ta'lim tizimini ilg'or horijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlari orqali xalqaro mexnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlash tayyorlash eng ustuvor maqsad qilib belgilanmog'i lozim.

Mavzu : Xirurgiya ishini tashkil qilish. Xirurgik statsionar, xirurgik bo‘limi va operatsion blokda tibbiyot hodimini ish faoliyati. Xirurgik asboblari va ularni tasnifi bo‘yicha ajratish va nomlash.

Tinglovchi bilishi kerak:

- 1.Xirurgik statsionar,xirurgik bo‘lim,operatsion blok tuzilishi va ish tartibi.
- 2.Xirurgik asboblarni nomlanishi, tasnifi, guruxlarga ajratilishi.
- 3.Operatsiya xonasi tozalash bosqichlari xususiyatlari.
- 4.Xirurgiya bo‘limida yuritiladigan tibbiy xujjatlar.

Tinglovchi bajara olishi kerak:

- 1.Xirurgik statsionar,xirurgik bo‘lim,operatsion blok tuzilishi bilan tanishish.
- 2.Xirurgik asboblarni nomlanishi, tasnifi, guruxlarga ajratish va xirurgga uzatish texnikasi.
- 3.Operatsiya xonasini tozalash bosqichlarini bajarish.

Mavzu bayoni.

Har bir tibbiyot xodimi inson va jamiyat oldida katta javobgarlik hissini har doim sezib turmog‘i kerak. Shuni yodda tutish kerakki, davolashning muvaffaqiyati va samaradorligi bemor-ning tibbiyot xodimlariga bo‘lgan ishonchiga bog‘liq, vaholanki, tibbiyot kasallikni emas, bemorni davolaydi. Davolashning har bir pog‘onasida bemor ongiga sog‘ayishga ishonch hissini singdirib borish kerak. Bu vazifa har bir insonparvar tibbiyot xodimining burchidir, insonparvarlik esa tibbiyot sohasining ajralmas qismidir

Respublikamizda xirurgik yordam tashkil qilingan bo‘lib, hozirgi kunda deyarli hamma viloyat shifoxonalarida ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan jarrohlik bo‘limlari mavjud. Hozirgi vaqtda Respublikamizdagi milliy dastur rejalariga asosan aholiga tibbiy xizmatni ikki yo‘nalish, ya‘ni kechiktirib bo‘lmaydigan va rejali tibbiy xizmat orqali amalga oshirish tashkillashtirilmoqda.

Xirurgiya boshqa tibbiyot fanlaridan farqli o‘laroq o‘z xususiyatlariga ega bo‘lib, xirurgik xizmat asosida ishlashni talab etadi. Operatsiya vaqtida aseptika va antiseptika qoidalariga katta e‘tibor beriladi. Aksincha, uning muhimligiga yetarlicha baho bermaslik operatsiya jarohatining yiringlab ketishiga va boshqa og‘ir oqibatlariga sabab bo‘ladi.

Xirurgik xizmat ko‘rsatish va uni tashkillashtirish jarayoni shoshilinch kechiktirib bo‘lmaydigan (appenditsit, ichak tutilishi, peritonit va h.k.) va rejali (kasalni obdan tekshirib, keyin operatsiya qilish) amalga oshiriladi.

Zamonaviy xirurgik statsionardagi palatalar, operatsiya bloki va xonalariga qo‘yiladigan talablar tibbiyotning boshqa yo‘nalishlaridagidan farq qiladi.

Zamonaviy xirurgiya bo‘limlari odatda 60 o‘ringa mo‘ljallangan bo‘ladi. Ayrim hollarda 25—40 o‘rinli maxsus xirurgiya bo‘limlari ham bo‘ladi. Zamonaviy xirurgik palatalar ikki seksiyadan iborat bo‘lib, ular zal, shlyuz yoki koridor bilan tutashtiriladi. Har bir seksiyada 30 tadan o‘rin, bir yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun esa 24 o‘rin bo‘lishi kerak. Palatalar bo‘limida quyidagi xonalar ko‘zda tutiladi: navbatchi hamshira posti (4 m²), muolaja xonasi (18 m²), bog‘lov xonasi (22 m²), oshxona (o‘rinlar soni o‘rinlar umumiy sonining 50—60% ni tashkil qiladi), oqliklarni saralash

va ishlatilgan oqliklarni, tozalash vositalarini saqlash xonasi (15 m²), vanna xonasi (12 m²), huqna xonasi (8 m²), hojatxona (erkaklar, ayollar va xodimlar uchun alohida). Bo'limda bo'lim mudiri xonasi (12 m²), ordinatlar xonasi (10 m²), katta hamshira xonasi (10 m²), xo'jalik bekasi xonasi (10 m²) bo'lishi lozim. Har bir klinikada professor, dotsentlar uchun ish xonasi va 10—12 kishiga mo'ljallangan o'quv xonalari bo'lishi kerak.



MUOLAJA XONASINING UMUMIY TUZILISHI.



BOG'LOV XONASINING UMUMIY TUZILISHI.

Operatsiya bloki tarkibiga operatsiya zali, operatsiya oldi, narkoz, sterillash va materiallar, asbob-uskunalar saqlanadigan xonalar kiradi. Xirurgik bo'limdagi ish hajmiga ko'ra bir necha operatsiya xonalari bo'lishi mumkin. Biroq, toza va yiringli operatsiya xonalari bo'lishini ko'zda tutish lozim.

Operatsiya xonasida ishga zarur apparatlar va mebellargina bo'lishi kerak. Operatsiya vaqtida bemorga har qanday zarur holatni egallash imkonini beradigan operatsiya stoli,

asboblari va yara bog'lash materiali qo'yiladigan operatsiya hamshirasi stollari, xirurg uchun stolcha, qon oqishini to'xtatish uchun termokoagulator, elektr so'rg'ich va anesteziologik apparatlar shular jumlasiga kiradi. Kislorodli ballonlar va narkotik gazli ballonlar operatsiya xonasidan chiqarib qo'yiladi. Gaz maxsus gaz o'tkazgichlar yordamida berilishi lozim.

Operatsiya xonasini tozalash. Tozalash quyidagi bosqichda bajariladi:

Kundalik tozalash — operatsiya jarayonida poldagi narsalar terib olinib, qondan ifloslangan pol artiladi, operatsiya tugagandan keyin qondan ifloslangan tog'ora, iflos tekkan oqliklar yig'ishtirib olinadi;

Yakuniy tozalash — operatsiya kuni oxirida pol va mebellar tozalab yuviladi, devorlar odam bo'yi yetadigan joygacha artib chiqiladi;

Batamom yig'ishtirib tozalash — ship, devorlar, pol, derazalar haftasiga bir marta mexanik va kimyoviy preparatlar bilan tozalanadi;

Oldindan yig'ishtirib tozalash — har bir operatsiya kuni oldi-dan gorizontali sathlar ho'l latta bilan artib, changdan tozalanadi.




Xirurgik asboblari. Operatsiyalar uchun ishlatiladigan asboblari ikki katta guruhga bo'linadi:

1) Deyarli hamma operatsiyalarda ishlatiladigan umumiy asboblari (to'qimalarni kesish uchun skalpel, pinsetlar, ilmoqlar, zondlar, sapkalar, kornsanglar; jarohatdan qon oqishini to'xtatish uchun qisqichlar va b.); 2) operatsiyalarning ayrim turlaridagina foydalaniladigan maxsus asboblari yiringli abdominal torakal xirurgiya, neyroxirurgiya, urologiya va proktologiya asboblariga bo'linadi.


To'qimalarni kesadigan asboblari: a) uchi o'tkir, qorinchali skalpellar; b) uchi to'mtoq va o'tkir to'g'ri, d) tomirlar uchun ishlatiladigan, e) laparoskopik to'g'ri va qiyshiq qaychilar (1-rasm).



Qo'shimcha xirurgik asboblari: a) tishli, b) tishsiz, d) panjali pinsetlar; e) tarnovsimon, f) to'mtoq zondlar; g) Farabef, h) uch va i) to'rt tishchali jarohatni ochuvchi ilmoqlar; j) kornsanglar; k) sapkalar (2-rasm).



Qon to'xtatuvchi asboblari: To'g'ri va egri a) Koxer, b) Bilrot, d) «chivin»simon qisqichlar; e) Deshan (o'ng va chap) ignalari.




To'qimalarni tikishda qo'llaniladigan asboblari: a) igna tutkich turlari; b) yumaloq, kesadigan, to'g'ri ko'p martalik va d) bir martalik atravmatik ignalar; e) pinset, igna tutkich, ilmoq va klipsalar.




Qorin bo'shlig'i operatsiyasi uchun asboblari:

Grosse, 2) Mikulich, 3) jigar, 4) qorin ko'zgulari; 5) troakar; 6) reveden shpateli; 7) ichakning yumshoq, 8) bosib turadigan jomlari; 9) ichakni bosib turadigan Payer jomi



Suyak operatsiyalari uchun asboblari:

1) Farabef (to'g'ri, qayrilgan); 2) yassi va tarnovsimon; 3) osteotom; 4) bolg'achalar (metall va yog'ochdan yasalgan); 5) yoysimon, 6) sim arralar; 7, 8) Olening fiksatsion, 9) Lyuer, 10) Liston qisqichlari, pichoqlar; 11—14) amputatsion (katta, o'rta, kichik), xanjarsimon, 15) falangasimon, 16) rezeksion pichoqlar; 17) skal-pel; 18) retraktor



Traxeostomiya uchun asboblari:

1) traxeostomik kanyula (yi-g'ilgan va qismlarga ajratilgani); 2) Òrussoning traxeya kergichi; 3) bir tishli ilmoq.



T / R	Bajariladigan ishlar mazmuni	Muolaja uchun jixozlar	Rasm va chizmalar.	Muolajani bajarish algoritmi.
1	Qo'llarni yuviladi.	Rakovina Suv, suyuq sovun,salfetka, rezina qo'lqop.		1.Qo'llar suyuq sovun yordamida ko'pirtirib 6 bosqichda yuviladi. 2.Steril salfetka bilan qo'llar quritiladi.
2	Bir martalik steril qo'lqop kiyiladi	Steril qo'lqop		1.Bir martalik steril qo'lqoplar qoidaga rioya qilgan xolda kiyiladi.
3	Muolajaga tayyorgarlik ko'riladi.	Steril stol,umumiy va maxsus xirurgik asboblari,biks.,salfetka.		1.Muolaja uchun kerakli jixozlar tayyorlanadi.
4	Steril stol tayyorlanadi.	Steril stol ,biks. Oqlik, salfetka, spirt 96%, dez eritma, vetosh.		1.Stol usti dez eritma bilan namlangan vetosh yordamida artiladi. 2. 96%li spirtida xo'llangan salfetka yordamida artiladi. 3. 2 qavat steril oqliklar solib tayyorlanadi.
5	Xirurgik asboblarni terishga tayyorlanadi.	Umumiy va maxsus xirurgik asboblari,biks. Oqlik, salfetka, spirt 96%, dez eritma, vetosh.		1.Biks ochiladi va umumiy xirurgik asboblari olinadi

Xirurgiya bo'limida yuritiladigan tibbiy xujjatlar quyidagilar :

- 1)Bemorlarni ro'yxatga olish jurnali.
- 2) Dori-darmon hisoboti jurnali.
- 3) Kuchli ta'sir etuvchi va dorilarni ro'yxatga olish jurnali.
- 3) Operatsiyalarni ro'yxatga olish jurnali.
- 4) Muolajalarni qayd qilish jurnali.

6	Umumiy xirurgik asboblarni sterilizatsiya qilish.	Umumiy xirurgik asboblarni sterilizatsiya qilish.		1. Umumiy xirurgik asboblarni steril stolga tartibi bo'yicha sterilizatsiya qilish: skalpel, qaychi, pinsetlar, sapka kortsang, tishli ilmoqlar, Farabef ilmoqlari, qon to'xtatuvchi qisqichlar, Deshan ignasi, Gegar igna tutqich, xirurgik igna.
7	Maxsus xirurgik asboblarni sterilizatsiya qilish.	Maxsus xirurgik asboblarni sterilizatsiya qilish.		2. Maxsus xirurgik asboblarni steril stolga tartib bilan sterilizatsiya qilish: Gosse jaroxat kergich, qorin ko'zgu, jigar ko'zgusi, Payer jom, yumshoq jom, qattiq jom, Rektal ko'zgu, gemoroidal qisqich, Amputatsion arra, iskana, amputatsion pichoq, qoshiqcha, Traxeya Trusso kergichi, traxeostomik trubka.
8	Steril stol tayyor xolatga keltiriladi.	Steril stol, sapka. Steril oqlik.		1. Steril stolga sterilizatsiya qilingan xirurgik asboblarni ustiga steril oqlik bilan yopiladi. 2. Oqlik chetlari sapka bilan qistirib qo'yiladi. 3. Tayyorlangan kuni va soati yozib qo'yiladi.

5) Bog'lamlarni qayd qilish jurnali.

6) Kvarstlash jurnali.

7) Asboblarni qayd etish va sterilizatsiya qilish jurnali.

Mavzuga oid amaliy ko'nikmalar :

Amaliy mashg'ulot nomi: Xirurgik asboblarni tasnifi bo'yicha ajratish va terish.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Xirurgik asboblarni tasnifi bo'yicha ajratish va nomlanishini tartibi bo'yicha terishni o'rgatish.

Mavzu: Aseptika. Xirurgik asboblarni sterilizatsiyaga tayyorlash, sterilizatsiya qilish. Sterilizatsiya usullari.

Tinglovchi bilishi kerak.


1. Aseptika haqida umumiy tushuncha.
2. Sterilizatsiya va uning turlari.
3. Sterillikni nazorat qilish.

Tinglovchi bajara olishi kerak.


1. Xirurgik asboblarni sterilizatsiyaga tayyorlash,
2. Asboblarni sterillash.
3. Sterilizatsiya samaradorligini nazorat qilish.
4. Operatsiya xonasini tozlash usullari,

Mavzu bayoni.


Aseptika-bu jaroxatga mikroblar tushishini oldini olishni ta'minlaydigan tadbirlar kompleksidir. Aseptikaning quyidagi turlari mavjud.



Sterilizatsiya-bu barcha tibbiy buyumlardagi mikroorganizmlarni hamda ularning sporalarini batamom yo'qotish yoki qatronlashga qaratilgan chora tadbirlar yig'indisi hisoblanadi. Sterilizatsiyaning quyidagi turlari mavjud.



Antiseptika- jaroxatdagi mikroblarni yo'qotish yoki sonini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar sistemasi hisoblanadi. Antiseptikaning quyidagi turlari mavjud.



Xozirgi kunda Xirurgik bo'limlarda keng qo'llanayotgan antiseptik moddalarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin.

- Etil spirti 70%, 96%.
- Yodning spirtidagi eritmasi 1, 3, 5%
- Brilliant yashili 1%
- Vodorod peroksidi 3, 5%
- Furatsillin eritmasi 1:1000 va 1:5000 nisbatdagi.
- Antibiotiklar guruxi

Mavzuga oid amaliy ko'nikmalar :

Amaliy mashg'ulot nomi: Xirurgik asboblarni sterilizatsiyaga tayyorlash.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Xirurgik asboblarni sterilizatsiyaga tayyorlashni talabalarga o'rgatish.


Amaliy mashg'ulot nomi: Xirurgik asboblarni kuydirib sterilizatsiya qilish.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Xirurgik asboblarni kuydirib sterilizatsiya qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarini o'rgatish.

T / R	Bajariladigan ishlar mazmuni	Kerakli jihozlar	Rasmlar, chizmalar, eskizlar	Ishning bajarilish tartibi
1	Qo'llarni yuviladi.	Rakovina Suv, suyuq sovun, salfetka.		1.Qo'llar suyuq sovun yordamida ko'pirtirib 6 bosqichda yuviladi. 2.Steril salfetka bilan qo'llar quritiladi.

T / R	Bajariladigan ishlar mazmuni	Kerakli jihozlar	Rasmlar, chizmalar, eskizlar	Ishning bajarilish tartibi
1	2	3	4	5
1	Qo'llarni yuviladi.	Rakovina Suv, suyuq sovun, salfetka.		1.Qo'llar suyuq sovun yordamida ko'pirtirib 6 bosqichda yuviladi. 2.Steril salfetka bilan qo'llar quritiladi.
2	Bir martalik steril qo'lqop kiyiladi	Rezina qo'lqop, 96% spirt, sharcha.		1. Bir martalik steril qo'lqoplar qoidaga rioya qilgan xolda kiyiladi.
3	Muolajaga tayyorgarlik ko'riladi.	sirlangan tog'ora, dez.eritma, chotka, xo'jalik qo'lqopi, ishlatilgan xirurgik asboblari.	Рекомендуемые дез.растворы: - Хлорамин 3% – 60 мин. - H₂O₂ 6% – 90 мин. - H₂O₂ 6% с 0,5% СМС – 90 мин. - Пероксимед 3% – 60 мин. - Виркон 2% – 10 мин. - Секусепт 2% – 120 мин. - Дезоксон-1 0,5% – 30 мин 	1.Muolajani boshlashdan avval sirlangan tog'oraga dez eritma tayyorlab qo'yiladi. 2.Ishlatilgan xirurgik asboblarni qisqichlari ochilgan xolatda tog'oradagi dez. eritmaga 30 daqiqaga solinadi. 3.Tog'orada turgan xolatda instrumentlar cho'tka yordamida yaxshilab yuviladi. 4.Dez. eritmada yuvib bo'lingach xirurgik asboblari 2-tog'oradagi yuvuvchi eritmaga solinadi. 5.Yuvuvchi eritmada yuvilgan instrumentlarni oqar suvda chayiladi va asboblari toza mato ustida quritiladi.
4	Tozalik darajasi tekshiriladi	Amidopirin, Azopiram, Fenofalin eritmasi, shpirist, salfetka.		1.Yuvib quritilgan instrumentlarda qon va ishqor qoldig'ini aniqlanadi. 2.Qon qoldig'ini aniqlash uchun Amidopirin yoki Azopiram sinamasi o'tkaziladi. 3.Ishqor qoldig'ini

				aniqlash uchun Fenofthalin sinamasi o'tkaziladi.
5	Natija baxolanadi.	Xirurgik asboblar, pipetka.		1.Amidopirin sinamasini o'tkazganda buyum yuzasiga tomizilgan eritma rangi ko'k-yashil tusga kirs qon qoldig'i bor deb baxolanadi va qayta dezinfeksion eritmada yuviladi, jarayon takrorlanadi. 2.Fenofthalin sinamasi o'tkazilganda buyum yuzasiga tomizilgan eritma rangi binafsha rangiga o'zgarsa ishqor qoldig'i bor deb baxolanadi va yuvuvchi eritmada yuviladi, jarayon takrorlanadi.
5	Biksga asboblar joylanadi.	Biks, oqliklar.		1.Quritilgan xirurgik asboblar guruxlariga qarab birlashtiriladi, kichik oqliklarga o'raladi. 2.Biks ichiga oqlik solinadi va xirurgik asboblar navbatma-navbat joylashtiriladi. 3.Asboblar joylashtirib bo'lingach oqlik bilan yopiladi va biks qopqog'i berkitiladi. 4.Biksning yon teshiklari berkitilib sterilizatsiyaga topshiriladi.
2	Bir martalik steril qo'lqop kiyiladi	Rezina qo'lqop, 96% spirt, sharcha.		1. Bir martalik steril qo'lqoplar qoidaga rioya qilgan xolda kiyiladi.

3	Muolaja uchun kerakli jixozlar tayyorlanadi.	96% li spirt, sirli latok yoki tog'ora, xirurgik asboblari.		1. Latok yoki tog'oraga 96% li spirt quyiladi va barcha yuzasi spirt bilan namlanadi. 2. Spirt bilan namlagach yoqiladi, to'liq yonib bo'lgunga qadar kutiladi. 3. Avvaldan yuvib quritib qo'yilgan xirurgik metal buyumlar tog'ora yoki latok ichiga solinadi, qisqichlari ochilgan xolatda. 4. Xirurgik buyumlar ustidan 96% li spirt quyiladi va yoqiladi. 5. Spirt to'liq yonib bo'lgach xirurgik asboblari steril xisoblanadi.
				
				

Amaliy mashg'ulot nomi: Xirurgik asboblarni qaynatib sterilizatsiya qilish.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Xirurgik asboblarni qaynatib sterilizatsiya qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalarini o'rgatish.

T/R	Bajariladigan ishlar mazmuni	Kerakli jihozlar	Rasmlar, chizmalar, eskizlar	Ishning bajarilish tartibi
1	Qo'llarni yuviladi.	Rakovina Suv, suyuq sovun, salfetka.		1. Qo'llar suyuq sovun yordamida ko'pirtirib 6 bosqichda yuviladi. 2. Steril salfetka bilan qo'llar quritiladi.
2	Bir martalik steril qo'lqop kiyiladi	Rezina qo'lqop, 96% spirt, sharcha.		1. Bir martalik steril qo'lqoplar qoidaga rioya qilgan xolda kiyiladi.

3	Muolaja uchun kerakli jixozlar tayyorlanadi.	Sterilizator, disterlangan suv, NaOH (natriy gidrokarbonat)		1. Muolaja uchun kerakli jixozlar tayyorlanadi. 2. Xamshira muolajani bajarish uchun tayyorlanadi.
4	Muolajani bajarish boshlanadi.	Xirurgik asboblari, sterilizator, 2%li soda eritmasi, elector yokigaz plitasi.		1. Sterilizator ichini spirtli sharcha yordamida artib tozalanadi. 2. Sterilizatorga 1 l miqdorida disterlangan suv quyiladi. 3. Disterlangan suvga 20gr NaOH qo'shiladi, 2%li soda eritmasi hosil bo'ladi.
5	Sterillash boshlanadi.	Xirurgik asboblari, sterilizator, 2%li soda eritmasi, elector yoki gaz plitasi.		1. Avvaldan yuvib quritilgan xirurgik asboblarni tayyorlanadi. 2. Sterilizator tagligiga xirurgik asboblari teriladi. 3. Sterilizator ichiga xirurgik asboblari joylanadi va qopqog'i zich qilib yopiladi. 4. Sterilizator elector yoki gaz plitaga qo'yiladi va vaqti belgilanadi. 5. Sterilizator ichidagi suv qaynashni boshlagan vaqtdan 45 daqiqa xissoblab qaynatish davom ettiriladi.
6	Asboblari quritiladi.	Xirurgik asboblari, sterilizator.		1. Sterillash yakunlangach xirurgik asboblarni quritishga olinadi. 2. Quritishda quritish shkaflaridan foydalaniladi yoki sterilizatorning qopqog' qismiga qo'yilgan xolatda amalga oshiriladi.

Mavzu: Qo'lni, operatsion maydonni yuqumsizlantirish, tibbiyot xodimini operatsiyaga tayyorlanishi.

Tinglovchi bilishi kerak.

1. Aseptika haqida tushuncha.
2. Kasalxona ichi infeksiyasini oldini olish.
3. SSV buyruqlari.

Tinglovchi bajara olishi kerak.

1. Qo'lni va operatsiya maydonini yuqumsizlantirish usullari.
2. Steril kiyim kiyish va kiydirish tartibi.
3. Steril qo'lqop kiyish va kiydirish tartibi.
4. Steril stolni tayyorlashni o'zlashtirish.

Mavzu bayoni.

Xirurgik infeksiya tushunchasini bayon qilganda quyidagilarni keltirish mumkin.

1. Jaroxat birlamchi iflosnadigan birlamchi infeksiya.
2. Reinfeksiya- birlamchi infeksiyaning tugashi jarayonida takroriy yuqishi.
3. Superinfeksiya-tugallangan infeksiyon jarayon sharoitlarida takroriy yuqish bu odatda juda tez og'ir kechadi.

Mikroblarning organizmga tushishi uchun "kirish darvozasi" bo'lishi kerak, ya'ni qoplamalar(teri, shilliq parda) butunligi buziladi. Xirurgik infeksiya ikkita omilga

1. Organizmga tushgan mikroblarning dozasi va virulentligiga.
2. Organizmning himoya kuchiga.

Operatsiya qilingan hududda infeksiya rivojlanishining oldini olish uchun hozirgi vaqtda tadbirlar majmuasi ishlab chiqilgan. Operatsion brigada maxsus usullar bilan qo'llarni zararsizlantiriladi, jaroxatga tegadigan hamma narsalardagi mikroorganizmlarni yo'qotish uchun bog'lov materiallari, asboblari tayyorlaniladi. O'zbekiston Respublikasi Sanitariya Qoidalari, Me'yorlari va Gigiyena Normativlari. "Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi" SanQvaM N;0342-17.

Mazkur sanitariya-epidemiologiya qoidalari davolash-profilaktika muassalarida shifoxona ichi infeksiyalari kelib chiqishi va ularning tarqalishini oldini olishga qaratilgan sanitariya-gigiyena, profilaktika va epidemiyaga qarshi tadbirlar majmuasi bo'yicha asosiy talablarni belgilaydi. SHII qo'zg'atuvchilari o'z tuzilishiga ko'ra, viruslardan tortib bir hujayralilargacha bo'lishi mumkin. SHII qo'zg'atuvchilari ko'pincha bakteriyalar, kamdan-kam holatlarda viruslar va zamburug'lar bo'lishi mumkin. Kasallik manbai bo'lib tibbiy yordam ko'rsatilayotgan bemorlar, tibbiyot muassasi hodimlari va ba'zi holatlarda bemorning qarovchi shaxslar bo'lishi mumkin. Ushbu buyruqqa asosan buyrug'ning V-bobida ma'lumotlar keltirilgan. V-bob 11-ta bo'limdan iborat bo'lib Xirurgik profil tarkibiga kiruvchi bo'limlarga qo'yilgan sanitar-epidemiologik qoida va me'orlari keltirilgan. Jarrohlik kabinetida 2 ta bog'lov xonasi bo'lishi kerak: 1. Aseptika (toza). 2. Septik (yiringli).

Mavzuga oid amaliy ko'nikmalar :

Amaliy mashg'ulot nomi: Qo'lni zamonaviy usulda yuqumsizlantirish.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Jarrox qo'lini operatsiyaga zamonaviy usulda tayyorlash ko'nikmalarini shakillantirish.

T/R	Bajariladigan ishlar mazmuni	Kerakli jihozlar	Rasmlar, chizmalar, eskizlar	Ishning bajarilish tartibi
1	2	3	4	5
1	Qo'llar namlanadi.	Rakovina, oqar suv.		1.Qo'llar oqar suv ostida tirsakkacha to'liq namlanadi. 2.Tirsak yordamida suyuq sovun qo'l kaftiga bosib chiqariladi. 3.Qo'l kaftida yaxshilab ko'pirtiriladi.
2.	Qo'llar yuviladi.	Suyuq sovun, oqar suv.		1.O'ng va chap qo'llar tirsak soxasigacha yaxshilab ko'pirtiriladi. 2.Ko'pirtirilgach bir tekisda ishqalanadi. 3.Oqar suv ostida qo'l barmoq uchidan tirsakka tomon oqizib yuviladi.
3.	Qo'llar yuviladi.	Suyuq sovun, oqar suv.		1.O'ng va chap qo'llar bilak soxasigacha yaxshilab ko'pirtiriladi. 2.Ko'pirtirilgach bir tekisda ishqalanadi. 3.Oqar suv ostida qo'l barmoq uchidan tirsakka tomon oqizib yuviladi.
4.	Qo'llar yuviladi.	Suyuq sovun, oqar suv.		1.O'ng va chap qo'llar kaft soxasigacha yaxshilab ko'pirtiriladi. 2.Ko'pirtirilgach bir tekisda ishqalanadi. 3.Oqar suv ostida qo'l barmoq uchidan tirsakka tomon oqizib yuviladi.


5.	Qo'llar yuviladi.	Rakovina, oqar suv.		1.Oqar suv ostida qo'l barmoq uchidan tirsakka tomon oqizib yuviladi. 2.O'ng va chap qo'llardagi ko'pik yaxshilab oqar suv ostida yuviladi.
6	Qo'llarga ishlov beriladi.	Steril salfetka, sharcha, kortsang, pinset, 96% li spirt, 1% li yod.		1.O'ng va chap qo'l steril salfetka yordamida bosib bosib quritiladi. 2.Steril sharchani 96% li spirtga botirib o'ng va chap qo'lning tirsak, bilak va kaft qismigacha 3 bosqichda Aseptik ishlov beriladi.
7.	Steril qo'lqop kiyiladi.	Xirurgik steril qo'lqop, 96% li spirt.		1.Avval chap qo'lga bir martalik steril qo'lqop qoida mos ravishda kiyiladi. 2.Yuqoridagi qoidaga asosan o'ng qo'lga steril qo'lqop kiyiladi. 3.Har ikkala qo'lga qo'lqoplarni kiyib bo'lgach tekislanadi va yana bir bor 96% li spirt bilan sharcha yordamida Aseptik ishlov beriladi.

Amaliy mashg'ulot nomi: Operatsion maydonni "Filanchikov Grossix" usulida yuqumsizlantirish.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Operatsion maydonni "Filanchikov Grossix" usuli yordamida yuqumsizlantirish hamda tayyorlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakillantirish.

Amaliy mashg'ulot nomi: Steril xirurgik xalat kiyish va kiydirish texnikasi.

/R	Bajariladigan ishlar mazmuni	Kerakli jihozlar	Rasmlar, chizmalar, eskizlar	Ishning bajarilish tartibi
1	2	3	4	5
1.	Qo'llar yuviladi.	Suyuq sovun, rakovina, oqar suv.		1.Qo'llar suyuq sovun yordamida ko'pirtirib 6 bosqichda yuviladi. 2.Steril salfetka bilan qo'llar quritiladi.
2	Bir martalik steril qo'lqop kiyiladi	Rezina qo'lqop, 96% spirt, sharcha.		1. Bir martalik steril qo'lqoplar qoidaga rioya qilgan xolda kiyiladi.
3	Muolajaga tayyorgarlik ko'riladi.	Oqlik, salfetka, spirt 96%, 1% yodning spirtidagi eritmasi, Kortsang, sapka.		1.Filanchikov Grossix usuli 4 bosqichda amalga oshiriladi. 2.Avvaldan operatsion maydonga gigienik usulda ishlov beriladi. 3.Operatsion xamshira kortsangga steril salfetkani o'rab tayyorlab spirtga mo'l qilib namlab beradi.
4.	Operatsion maydonga ishlov beriladi.	Oqlik, salfetka, spirt 96%, 1% yod, Kortsang, sapka.		1. Filanchikov Grossix usulining 1-bosqichi operatsion maydonga oqlik solishdan avval bajariladi. 2.96 % li spirt, 1% li yod, 96 % li spirt yordamida navbatma navbat operatsion maydonga keng ko'lamda markazdan periferiya tomon ishlov beriladi.
5.	Operatsion maydonga ishlov beriladi.	Oqlik, salfetka, spirt 96%, 1% yod, Kortsang, sapka, skalpel.		1. Filanchikov Grossix usulining 2-bosqichi operatsion maydonga oqlik solgandan so'ng bajariladi. 2.Operatsion maydonning yon atrofi oqlik bilan yopiladi va chetlari sapka yordamida qistiriladi. 3.96 % li spirt, 1% li yod, 96 % li spirt yordamida navbatma navbat operatsion maydonga ishlov beriladi va operatsion maydon skalpel yordamida kesib ochiladi.

6.	Operatsion jaroxatga ishlov beriladi.	Salfetka, spirt 96%, 1% yod, Kortsang, qaychi, anatomik pinset, gegar igna tutqich, xirurgik igna, chok ipi.		1. Filanchikov Grossix usulining 3-bosqichi operatsion maydonga chok solishdan avval bajariladi. 2. Operatsion jaroxat obdon ko'zdan kechiriladi, qon qoldiqlaridan tozalanadi, qo'yilgan qisqich, salfetka, tamponlar olinadi. 3. 96 % li spirt, 1% li yod, 96 % li spirt yordamida navbatma navbat operatsion jaroxatga ishlov beriladi va chok solish boshlanadi.
7.	Operatsion jaroxatga ishlov beriladi.	Salfetka, spirt 96%, 1% yod, Kortsang, leykoplaster ,bint.		1. Filanchikov Grossix usulining 4-bosqichi operatsion maydonga chok solgandan so'ng bajariladi. 2. Operatsion jaroxatga chok solib bo'lingach 96 % li spirt, 1% li yod, 96 % li spirt yordamida navbatma navbat ishlov beriladi va jaroxat ustini steril salfetka bilan yopiladi xamda leykoplasterli yoki bintli bog'lam qo'yiladi.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Steril xalat kiyish va Xirurgga steril xalat kiydirish amaliy ko'nikmalarini shakillantirish.

T / R	Bajariladi gan ishlar mazmuni	Kerakli jihozlar	Rasmlar, chizmalar, eskizlar	Ishning bajarilish tartibi
1	2	3	4	5
1	Qo'llar yuviladi.	Suyuq sovun, oqar suv, rakovina.		1. Operatsion xamshira va jarrox qo'lini 3 bosqich asosida yuvadi. avval qo'lning tirsak soxasigacha suyuq sovun bilan ko'pirtirib obdon ishlov beriladi. 2. Suvni tirsak orqali oqizilgach bilak soxasigacha so'ngra kaft soxasigacha ko'pirtirib yuviladi, suv tirsak tomon oqiziladi.

2	Qo'llarga Aseptik ishlov beriladi.	Steril sochiq, steril salfetka, 96%li spirt, pinset.		1.Steril sochiq yordamida qo'llar bosib artib quritiladi va yuqoriga ko'tarib turiladi. 3.Qo'llarga 3 bosqichda: 1 tirsak, 2 bilak, 3 kaft soxasiga 96% spirt bilan Aseptik ishlov beriladi.
3	Steril xalat kiyiladi.	Biks, steril xalat, pinset.	  	1.Biks ichidan steril xalat pinset yordamida olinadi. 2.Xalat poldan 40-50sm balandlikda yoziladi. 3.Xalatni ichki tomonini xamshira o'zi tomon qilib ochadi.Steril xalatni yenglarini xamshira bir urinishda kiyadi va yelkasini ustiga tashlaydi. 4.Operatsion kichik tibbiyot xodimi Steril xalatning old qismlariga tegmagan xolatda orqa tomonda turub xalatning orqa bog'ichlarni bog'lab to'g'rilaydi. 5.Operatsion xamshira steril xalatni kiyib bo'lgach qo'lga yana bir bor 96%li spirt yordamida Aseptik ishlov beradi va steril qo'lqoplarni kiyadi, qo'lqoplar ustidan yana bir bor 96% li spirt bilan Aseptik ishlov beradi.
5	Xirurg qo'lga Aseptik ishlov beriladi	Steril sochiq, salfetka, 96% li spirt, pinset.	 	1.Xirurg qo'llarini yuvib quritib bo'lgach Aseptik ishlov beriladi. 2.Operatsion xamshira steril salfetkani spirtga tekkizib xirurgning kaftiga 3 marotaba pinset yordamida qo'yadi. 3.Avval tirsak qismigacha so'ng bilakkacha va oxirida kaft qismiga spirt bilan ishlov beriladi.

6	Steril xalat biksdan olinadi.			1.Xamshira biks ichidagi steril xalatni pinset yordamida oladi va extiyotkorlik bilan ochadi. 2.Steril xalatni poldan 40-50 sm balandlikda yozadi.
7	Steril xalat xirurgga kiydiriladi.	Steril xalat.	  	1.Steril xaltini ichki tomoni xirurg tomonga old tashqi tomonini esa xamshira o'zi tomon qilib to'liq yozib, xalatning yelka qismidan ushlaydi. 2.Avval yeng qismini kiydirib yelka soxasigacha olib boradi. 3.Xirurg xalatining orqa tomonidagi bog'ichlarni kichik tibbiyot xodimi old tarafga tegmasdan bog'laydi.
8	Steril qo'lqop kiydiriladi.	Steril qo'lqop, 96% li spirt, pinset, steril sharcha.		1.Xirurg steril xalatni kiyib bo'lgach xamshira steril sharchani 96% li spirtga tekizzib xirurgning qo'l kaftiga qo'yadi, qo'l kaftiga Aseptik ishlov beradi. 2.Steril qo'lqoplarni ochib xamshira ushlab turadi va bir urinishda o'ng va chap qo'lga kiyiladi, barmoq qismiga borganda qo'llarni yuqoriga ko'tariladi, xirurgning bilak soxasigacha qo'lqopni tortib kiydiriladi va spirt bilan Aseptik ishlov beriladi.

Mavzu : Antiseptika. Antiseptik vositalarni xirurgiyada qo'llanishi. Bog'lov materiallari va xirurgik asboblarni biksga joylash.

Tinglovchi bilishi kerak.

1. Antiseptika haqida umumiy tushuncha.
2. Asosiy antiseptik vositalar va ularning qo'llanilishi.
3. Antiseptik vositalarga retsept yozish.

Tinglovchi bajara olishi kerak.

1. Bog'lov ashyolarini tayyorlash va bikslarga joylash.
2. Xirurgik asboblarni, ash'yolarni bikslarga joylash usullari.
3. Steril stol tayyorlash.

Mavzu bayoni.

Antiseptika—bu jaroxatga tushgan mikroba va uning sporalarini yo'qotish yoki sonini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar sistemasidir. Antiseptikaning quyidagi turlari mavjud:

- 1. Kimyoviy antiseptika.
- 2. Fizik antiseptika.
- 3. Mexanik antiseptika.
- 4. Biologik antiseptika.
- 5. Aralash antiseptika.

Kimyoviy antiseptika—mikroblarni yo'qotish (bakteriosid) yoki jaroxatda uning rivojlanishini to'xtatish (bakteriostatik) xususiyatga ega bo'lgan turli kimyoviy antiseptik moddalardan foydalanib amalga oshiriladi. Masalan Spirt(70%, 96%) Yod(1% 5%) Furatsillin eritmasi(1:1000, 1:5000) Vodorod peroksidi(3%) va boshqa eritmalar.

Fizik antiseptika—steril sharcha, salftka, tampon, drenaj naychasi, ultrabinafsha lampalar, infraqizil lazer apparatlari yordamida amalga oshiriladi. Fizikaviy vositalar yordamida jaroxatdagi toksin va yiringlarni fizikaning so'rish oqim yo'nalishini xosil qilish qonunlari asosida chiqarib yuboriladi.

Mexanik antiseptika— jaroxat va uning atrofini mexanik usul yordamida tozalash, yot jisimlarni olib tashlash, nekrozga uchragan va o'lishi aniq bo'lgan to'qimalarni olib tashlash, jaroxatga ishlov berish va chok solishasosida olib boriladi.

Biologik antiseptika—turli biologik dori moddalar: vaksina, immunoglobulinlar, anatoksinlar, zardoblar, antibiotiklar bundan tashqari qon va plazma kabilardan foydalangan xolda inson organizmni mikroorganizmlarga nisbatan qarshi kurashuvchanlik qobiliyatini shakillantirgan xolda amalga oshiriladi.

Aralash antiseptika— yuqorida keltirilgan antiseptika turlarini kompleks xolda tibbiyot amaliyotida qo'llanilishidir. Bog'lov materiallariga— doka sharcha, salftka, tampon, trundalar kiradi. Bog'lov materiallari gigroskopik, tez shimuvchi matodan ya'ni dokadan tayyorlanadi

Mavzuga oid amaliy ko'nikmalar :

Amaliy mashg'ulot nomi: Bog'lov materiallari (salftka, sharcha, tampon) tayyorlash.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Bog'lov materiallari (salftka, sharcha, tampon) tayyorlash ko'nikmalarini shakillantirish.

T / R	Bajariladigan ishlar mazmuni	Kerakli jihazlar	Rasmlar, chizmalar, eskizlar	Ishning bajarilish tartibi
-------------	------------------------------------	---------------------	---------------------------------	----------------------------


1	Qo'llarni yuviladi.	Rakovina Suv, suyuq sovun,salfetka.		1.Qo'llar suyuq sovun yordamida ko'pirtirib 6 bosqichda yuviladi. 2.Steril salfetka bilan qo'llar quritiladi.
2	Bir martalik steril qo'lqop kiyiladi	Rezina qo'lqop, 96% spirt, sharcha.		1. Bir martalik steril qo'lqoplar qoidaga rioya qilgan xolda kiyiladi.
3	Muolajaga tayyorgarlik ko'riladi.	Oqlik, salfetka, doka, spirt 96%, dez eritma, vetosh.		1.Muolaja uchun kerakli jixozlar tayyorlanadi.
4	Doka bo'laklari tayyorlanadi.	Qaychi, sm li lenta Doka		1.Doka kerakli o'lchamda kesiladi. 2.Katta salfetka uchun sm 3.O'rtacha salfetka uchun sm 4.Kichik salfetka uchun smdan qilib doka kesib olinadi.
6	Salfetka taxlanadi.	Doka		1.Kesilgan doka chetlari 2sm da xamma tarafi ichkarisiga bukilib chiqiladi.
7	Salfetka taxlanadi.	Doka.		1.Doka o'rta qismidan ko'ndalang xolatida bir marta bukiladi va ikki uchi birlashtiriladi to'rtburchak xolatga keltiriladi.
8	Salfetka taxlanadi.	Doka.		1.Tayyor salfetkani chetlaridan doka iplari chiqib qolmaganiga axamiyat beriladi.

9	Biksga joylanadi.	Biks. Oqlik.		1.Tayyor salfetkalarni sterillash uchun biksga joylanadi.
10	Sterillanadi.	Biks. Avtoklav, vetosh, dez eritma.		1.Ish joyi tartibga keltiriladi. 2.Biks avtoklavga yuboriladi.

Amaliy mashg'ulot nomi: Bog'lov materiallari (salfetka, sharcha, tampon) tayyorlash.


Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Bog'lov materiallari (salfetka, sharcha, tampon) tayyorlash ko'nikmalarini shakillantirish.

T/R	Bajariladigan ishlar mazmuni	Kerakli jihozlar	Rasmlar, chizmalar, eskizlar	Ishning bajarilish tartibi
1	Qo'llarni yuviladi.	Rakovina Suv, suyuq sovun, salfetka.		1.Qo'llar suyuq sovun yordamida ko'pirtirib 6 bosqichda yuviladi. 2.Steril salfetka bilan qo'llar quritiladi.
2	Steril qo'lqop kiyiladi	Rezina qo'lqop, 96% spirt, sharcha.		1. Bir martalik steril qo'lqoplar qoidaga rioya qilgan xolda kiyiladi.

3	Muolajaga tayyorgarlik ko'riladi.	Oqlik, salfetka, doka, spirt 96%, dez eritma, vetosh.		1. Muolaja uchun kerakli jixozlar tayyorlanadi.
4	Doka bo'laklari tayyorlanadi.	Qaychi, sm li lenta Doka		1. Doka kerakli o'lchamda kesiladi. 2. Katta salfetka uchun sm 3. O'rtacha salfetka uchun sm 4. Kichik salfetka uchun smdan qilib doka kesib olinadi.
5	Doka chetlari bukiladi.	Doka		1. Avvaldan kesib tayyorlangan doka bo'laklarining chetlari 3 smdan qilib ichki tarafiga 3 marotaba bukiladi. 2. O'rta qismidan teng ikkiga bukib qalpoqcha xosil qilinadi. 3. Erkin qolgan uchlari qalpoqcha ichiga kiritiladi. 4. Doka chetlaridan iplar chiqmasligi va bir tekislikda uchburchak shaklda bo'lishi kerak.
6	Sharchalar sterillashga yuboriladi.	Sharcha, biks.		1. Tayyor bulgan sharchalar sanoqdan utkazib kichik qopchalarga solinadi. 2. Tayyor sharchalar biksga solinadi va sterillashga yuboriladi.
7	Ish yakullanadi	Vetosh		1. Ish yakunlangach ish joyi tartibga keltiriladi.

Amaliy mashg'ulot nomi: Bog'lov materiallarini biksga joylash.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Bog'lov materiallarini (salfetka, sharcha, tampon) biksga joylash ko'nikmalarini shakillantirish.

T/R	Bajariladigan ishlar mazmuni	Kerakli jihozlar	Rasmlar, chizmalar, eskizlar	Ishning bajarilish tartibi
1	Qo'llar ni yuviladi .	Rakovina Suv, suyuq sovun,salfetka.		1.Qo'llar suyuq sovun yordamida ko'pirtirib 6 bosqichda yuviladi. 2.Steril salfetka bilan qo'llar quritiladi.
2	Steril qo'lqop kiyiladi	Rezina qo'lqop, 96% spirt, sharcha.		1. Bir martalik steril qo'lqoplar qoidaga rioya qilgan xolda kiyiladi.
3	Muolajaga tayyorgarlik ko'riladi.	Oqlik, salfetka, doka, spirt 96%, dez eritma, vetosh.		1.Muolaja uchun kerakli jixozlar tayyorlanadi.
4	Doka bo'laklari tayyorlanadi.	Qaychi, sm li lenta Doka		1.Doka kerakli o'lchamda kesiladi. 2.Katta salfetka uchun sm 3.O'rtacha salfetka uchun sm 4.Kichik salfetka uchun smdan qilib doka kesib olinadi.
5	Doka chetlari bukiladi .	Doka		1.Avvaldan kesib tayyorlangan doka bo'laklarining chetlari 3 smdan qilib ichki tarafiga 3 marotaba bukiladi. 2.O'rta qismidan teng ikkiga bukib qalpoqcha xosil qilinadi. 3.Erkin qolgan uchlari qalpoqcha ichiga kiritiladi. 4.Doka chetlaridan iplar chiqmasligi va bir tekislikda uchburchak shaklda bo'lishi kerak.

6	Sharchalar sterillashga yuboriladi.	Sharcha, biks.		1.Tayyor bulgan sharchalar sanoqdan utkazib kichik qopchalarga solinadi. 2.Tayyor sharchalar biksga solinadi va sterillashga yuboriladi.
7	Ish yakullanadi	Vetosh		1.Ish yakunlangach ish joyi tartibga keltiriladi.

Mavzu : Operatsiyadan oldingi davr. Bemorlarni turli instrumental tekshiruvlarga (rentgenografiya, UTT, endoskopiya, rektomanoskopiya) va operatsiyaga tayyorlash.

Tinglovchi bilishi kerak.

- 1.Operatsiyadan oldingi davr haqida tushuncha.
- 2.Bajarilishiga, xususiyatiga va vaqtiga ko'ra operatsiya turlari.
- 3.Operatsiyadan oldingi davrning asosiy vazifalari.

Tinglovchi bajara olishi kerak.

- 1.Bemorlarni turli instrumental tekshiruvlarga tayyorlash rentgenografiya, UTT, endoskopiya, rektomonoskopiya.
- 2.Bemorlarni shoshilinch va rejali operatsiyalarga tayyorlashda qatnashish: terini tuklardan tozalash,
- 3.Premedikasiya o'tkazish.
- 4.Bemorni palatadan operatsiya xonasiga ko'chirib o'tkazish.
- 5.Operatsiya vaqtida, narkoz berishda va narkozdan uyg'onishda bemorlarni kuzatish.

Mavzu bayoni.

Operatsiya- bu patologik organga yoki to'qimaga davolash va profilaktika maqsadida qo'l va maxsus asboblardan yordamida mexanik ta'sir o'tkazishdir. Muayyan reja asosida bajariladigan ishlar majmuasiga- Operatsiya deyiladi. Operatsiya ikki davrga

ajratiladi.

1. Operatsiyadan oldingi davr-(OOD)

2. Operatsiyadan keyingi davr-(OKD)

Operatsiyadan oldingi davr- bemor statsionarga kelgan yoki shifoxonaga murojat qilgan vaqtdan boshlab toki operatsiya boshlanguncha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi.

Operatsiya bajarilishiga, xususiyatiga va vaqtiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi.

1. Vaqtiga ko'ra: a) shoshilinch. b) rejali.

2. Xususiyatiga ko'ra: a) radikal. b) palliativ.

3. Bajarilishiga ko'ra: a) qonli. b) qonsiz.

Shoshilinch operatsiyalarda- bemor operatsiyaga juda qisqa vaqt ichida tayyorlanadi. Shifokor ko'rsatmasiga ko'ra umumiy qon, qon ivish vaqti, qon guruxi, rezus faktor, klinik va bioximik taxlillar o'tkaziladi. Dush yoki vanna qabul qilish taqiqlanadi lekin teri tuklardan tozalanadi, agar jaroxat ochiq turda bo'lsa usti steril salfetka bilan yopiladi, atrofi spirt bilan abrabotka qilinadi.

Rejali operatsiyalarda- odatda bemorlarni operatsiyaga ambulator yoki statsionar shaklda tayyorlanadi. Bemordagi mavjud xastalik, uning yoshi, jismoniy va ruhiy holatiga alohida e'tibor berib o'rganiladi. Bemorni bosqichma-bosqich klinik tekshiruvlardan o'tkaziladi. Qo'shimcha diagnostik tekshiruv metodlari o'tkaziladi.

Radikal operatsiya- kasallangan organ yoki to'qima to'la olib tashlanadi.

Palliativ operatsiya- bemorga qulaylik yoki dardiga yengillik yaratish maqsadida bajariladi. Bemorning umrini biroz bo'lsada uzaytirish maqsadida o'tkaziladi.

Mavzuga oid amaliy ko'nikmalar :

Amaliy mashg'ulot nomi: Bemorlarni shoshilinch operatsiyalarga tayyorlash.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Bemorlarni shoshilinch operatsiyalarga tayyorlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.

T/R	Bajariladigan ishlar mazmuni	Kerakli jihozlar	Rasmlar, chizmalar, eskizlar	Ishning bajarilish tartibi
1	2	3	4	5
1	Qo'llarni yuviladi.	Rakovina Suv, suyuq sovun, salfetka.		1. Qo'llar suyuq sovun yordamida ko'pirtirib 6 bosqichda yuviladi. 2. Steril salfetka bilan qo'llar quritiladi.
2	Steril qo'lqop kiyiladi	Rezina qo'lqop, 96% spirt, sharcha.		1. Bir martalik steril qo'lqoplar qoidaga rioya qilgan xolda kiyiladi.

3	Muolajaga tayyorgarlik ko'riladi.	Oqlik, salfetka, doka, spirt 96%, dez eritma, vetosh.		1.Muolaja uchun kerakli jixozlar tayyorlanadi. 2.Muolaja maqsadi tushuntiriladi. 3.Bemor xolati baxoladi.
4	Anamnez to'planadi.	Ko'ruv varaqasi, fanendaskop rezina qo'lqop.	 	1.Qisqa anamnez to'planadi. 2.Umumiy ko'zdan kechiriladi. 3.Perkussiya, auskultatsiya, palpatsiya o'tkaziladi. 4.Agar maxsus ko'rsatma bo'lsa diagnostik tekshiruvlar o'tkaziladi.
5	Bemorni tayyorlanadi.	Salfetka, pinset, ustara, spirt 96%, toza suv.		1.Bemorni shoshilinch operatsiyaga tayyorlashda dush yoki vanna qabul qilishi mumkin emas. 2.Shoshilinch operatsiyaga tayyorlashda teri tuklardan ustara yordamida tozalanadi.
6	Jarohat usti yopiladi.	Salfetka.		1.Agarda ochiq jarohat bo'lsa jarohat ustini Aseptik bog'lam bilan yopiladi. 2.Tashqi qon ketish belgilar mavjud bo'lsa jgut bog'lanadi.
7	Ish yakullanadi	Vetosh		1.Bemor operatsiya zaliga transpartirovka qilinadi. 2.Operatsiya qilish uchun bemor narkozga tayyorlanadi. 3.Ish yakunlangach ish joyi tartibga keltiriladi.

Amaliy mashg'ulot nomi: Bemorlarni rejali operatsiyalarga tayyorlash.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Bemorlarni rejali operatsiyalarga tayyorlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakillantirish.

T/R	Bajarila digan ishlar	Kerakli jihozlar	Rasmlar, chizmalar, eskizlar	Ishning bajarilish tartibi
-----	-----------------------	------------------	------------------------------	----------------------------

	mazmu ni			
1	2	3	4	5
1	Qo'llar ni yuviladi	Rakovina Suv, suyuq sovun,salfet ka.		1.Qo'llar suyuq sovun yordamida ko'pirtirib 6 bosqichda yuviladi. 2.Steril salfetka bilan qo'llar quritiladi.
2	Steril qo'lqop kiyiladi	Rezina qo'lqop, 96% spirt, sharcha.		1. Bir martalik steril qo'lqoplar qoidaga rioya qilgan xolda kiyiladi.
3	Muolaja ga tayyorg arlik ko'rilad i.	Oqlik, salfetka, doka, spirt 96%, dez eritma, vetosh.		1.Muolaja uchun kerakli jixozlar tayyorlanadi. 2.Muolaja maqsadi tushuntiriladi. 3.Bemor xolati baxoladi.
4	Anamn ez to'plana di.	Ko'ruv varaqaasi, fanendaskop rezina qo'lqop.	 	1.Anamnez to'planadi. 2.Umumiy ko'zdan kechiriladi. 3.Perkussiya, auskultatsiya, palpatsiya o'tkaziladi. 4.Ko'rsatma bo'yicha diagnostik tekshiruvlar o'tkaziladi.
5	Bemorni tayyorla nadi.	Salfetka, pinset, ustara, spirt 96%, toza suv.		1.Bemorda funksional diagnostik tekshiruvlar o'tkaziladi, tashxisni tasdiqlash uchn. 2.Funksional tekshiruvlardan UTT, EKG, EXOKG, FEGDS, Rentgenologik tekshiruvlar o'tkaziladi.

6	Premediatsiya o'tkaziladi.	Dori vositalari.	Премедикация ■ Промедол 20 мг ■ Атропин 0,01 мг/кг ■ Димедрол 20 мг ■ Седуксен 10 мг Правило 3 катетеров ГКС по показаниям	1. Operatsiyadan bir kun avval bemorni narkozga tayyorlash maqsadida o'tkaziladi.
7	Operatsion maydonni gigienik tayyorlanadi.	Spirt 70%, toza sochiq, ustara.		1. Operatsion maydondagi tuklar ustara yordamida qirib tozalanadi. 2. Operatsion maydon tuklardan tozalangach 70% spirt yordamida ishlov beriladi.
6	Ish yakullanadi	Vetosh		1. Ish yakunlangach ish joyi tartibga keltiriladi. 2. Ishlatilgan buyumlar zararsizlantiriladi.

Mavzu : Operatsiyadan keyingi davrda bemorlarni kuzatish va parvarish qilish.

Tinglovchi bilishi kerak.

1. Operatsiyadan keyingi davr haqida tushuncha.
2. Operatsiyadan keyingi davr fazalari.
3. Operatsiyadan keyingi davrda kuzatiladigan asoratlari.

Tinglovchi bajara olishi kerak.

1. Bemor o'rnini tayyorlash.
2. Operatsiyadan keyin bemorlarni parvarish qilish.
3. Bog'lamlarni yangilashda, drenajlarni yuvishda ishtirok etish.
4. Bemorni ovqatlantirishda ishtirok etish.
5. Operatsiyadan keyin bemorlarni harakatlantirish rejimi.

Mavzu bayoni.

Operatsiyadan keyingi davr- deb bemorning operatsiyadan keyin tuzalib, kasalxonadan uyiga javob berilgungacha bo'lgan davrga aytiladi.

Operatsiyadan keyingi davr 3-fazaga bo'linadi.

1.Dastlabki faza-ayrim bemorlar uchun bir necha soat, ayrim bemorlar uchun esa 3-5 kunni tashkil qiladi. Bemor intensiv kuzatuvni talab qiladi, bu vaqtda bemorlar intensiv kuzatuv xonasida yoki reanimatsiya bo'limida kuzatuvda bo'ladi.

2.Kechki faza- operatsiyadan keyingi 2-3 haftani o'z ichiga oladi, ambulator bemorlar uchun esa jarohat bitguncha bo'lsa, kasalxonadagi bemorlar uchun esa shifoxonadan chiqquncha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

3.Ish qobiliyati tiklanguncha bo'lgan davr yoki boshqa natijalar aniqlanguncha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Operatsiyaning og'ir-yengilligiga, hajmi va bemorning umumiy ahvoriga ko'ra bu davr bir necha kundan bir necha oygacha cho'zilishi mumkin. Xirurgik operatsiyaning natijasi ko'p jihatdan operatsiyadan keyingi davrning qanday o'tkazilganligiga bog'liq bo'ladi. Operatsiyadan keyingi davrda bemorlarni parvarish qilishda o'rta tibbiy xodimning o'rni katta. Bunda shifokor ko'rsatmalarini to'g'ri va o'z vaqtida bajarish hamda bemorga yaxshi parvarish qilish uning tezroq sog'ayib ketishi uchun imkon yaratib beradi. Bemorni operatsiya xonasidan operatsiyadan keyingi palataga anesteziolog va tibbiy hamshira kichik tibbiyot hodimi bilan birgalikda olib o'tadi. Bunda bemorga qo'shimcha jarohat yetkazmaslik, yiqilmasligi, bog'lamning surilib ketmasligi, gips bog'lamining sinib qolmasligi kabi ehtiyot choralariga katta e'tibor beriladi. Buning uchun bemor operatsiya stolidan olinib aravachaga yotqiziladi. Zambil qo'yilgan aravachaning bosh tomoni karavotning oyoq tomoniga to'g'ri burchak ostida qo'yiladi. Bemorni boshqa vaziyatda olib yotqizilsa ham bo'ladi. Buning uchun zambilning oyoq tomoni karavotning bosh tomoniga qo'yiladi va bemor karavotga olinadi.


Bemorlarni kuzatish va parvarish qilish. Operatsiyadan keyingi davrda bemorlarni kuza-tishda tibbiyot hamshirasining tutgan o'rni katta. Bunda hamshira asosiy funksional ko'rsat-kichlar: puls, nafas, arterial bosim, harorat, ichilgan suv va ajratilgan siydik miqdori, plevra yoki qorin bo'shlig'idan yig'ilgan suyuqlik miqdorini yozib borishi lozim bo'ladi.

Mavzuga oid amaliy ko'nikmalar :

Amaliy mashg'ulot nomi: Mikroirrigator qo'yilgan bemorlarni parvarish qilish.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Tinglovchilarga mikroirrigator qo'yilgan bemorlarni parvarish qilish ko'nikmalarini o'rgatish.

T/r	Bajariladigan ishlar mazmuni	Kerakli jihozlar	Rasimlar, chizmalar eskizlar	Ishning bajarilish tartibi.
1	Qo'llarni yuviladi	Suv , sovun , sochiq		1.Qo'llarni yaxshilab sovun bilan yuviladi. 2.Qog'oz sochiq bilan artiladi.
2	Bir martalik steril qo'lqop kiyiladi.	Steril qo'lqop		1.Qo'lqoplar kiyiladi, fartuk taqiladi

3	Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi va kerakli jihozlar tayyorlanadi	Antiseptic vosita , pinset , qaychi, bog'lov materiallari, korsang, leykoplaster, 2 ta latok		1.Mikroirrigator atrofidagi eski bog'lov materiallari pinset va qaychi yordamida olib ishchi latoka tashlanadi. 2.Jaroxat atrofi ko'zdan kechiriladi.
4	Jarohat atrofiga ishlov beriladi	Bog'lov material , furatsilin eritmasi, pinset korsang		1.Jarohat atrofi kortsanga o'ralgan salfetkani antiseptic vositaga bo'ktirib markazdan periferiya tomon artiladi. 2. Ishlatilgan salfetka ishchi latokka tashlanadi. 3.Huddi shu tartibda 2-3 marta ishlov beriladi.
5	Jarohatni yopish uchun	Salfetka , leykoplaster qaychi		1.Drenaj atrofini antiseptika va aseptikaga qoidalariga rioya qilgan holda jarohat sohasiga qo'yiladi va leykoplaster yordamida mustahkamlanadi.
6	Mikroirrigatorga etibor beriladi.			1.Naychadan ajralgan suyuqlik miqdori va rangiga ahamiyat qaratiladi. 2.Ajralgan suyuqlik Intensiv kuzatuv varaqasiga qayd etib qo'yiladi.
7	Muolaja so'ngida	Salfetka , leykoplaster, pinset qaychi, korsang		1.Ishlatilgan jihozlar zararsizlantiruvchi eritmaga solinadi.

8	Ish yakullanadi	Vetosh		1.Ish yakunlangach ish joyi tartibga keltiriladi. 2.Bemorga tinch qulay sharoit yaratiladi.
---	-----------------	--------	---	---

Amaliy mashg'ulot nomi: Drenaj qo'yilgan bemorlarni parvarish qilishni.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Tinglovchilarga drenaj qo'yilgan bemorlarni parvarish qilish ko'nikmalarni o'rgatish.

T/R	Bajariladigan ishlarning mazmuni.	Kerakli jixozlar	Rasmlar , chizmalar, eskizlar.	Ishning bajarilish tartibi.
1	Qo'llarni yuviladi	Suv , sovun , sochiq		1.Qo'llarni yaxshilab sovun bilan yuviladi. 2.Steril sochiq bilan artiladi.
2	Bir martalik steril qo'lqop kiyiladi.	Steril qo'lqop		1.Qo'lqoplar kiyiladi, fartuk taqiladi
3	Muolaja maqsadi tushuntiriladi va bemorni muolajaga tayyorlanadi.	2 ta latok , pinset, bog'lov material , bog'lov materiallari, qaychi leykoplaster, rezina qo'lqop		1.Drenaj atrofi eski bog'lam material stereil qaychi va pinset yordamida olib ishchi latoka tashlanadi
4	Jarohat atrofiga ishlov beriladi	Bog'lov material , furatsilin eritmasi, pinset korsang		1.Jarohat atrofi kortsanga o'ralgan salfetkani antiseptic vositaga bo'ktirib markazdan periferiya tomon artiladi. 2.Ishlatilgan salfetka ishchi latokka tashlanadi. Huddi

				shu tartibda 2-3 marta ishlov beriladi.
5	Jarohatni yopish uchun	Salfetka , leykoplaster qaychi		1.Drenaj atrofini antiseptika va aseptikaga rioya qilgan holda jarohat sohasiga qo'yiladi va leykoplaster yordamida mustahkamlanadi.
6	Drenaj naychaga etibor beriladi			Naychadan ajralgan suyuqlik miqdori va rangiga ahamiyat qaratiladi.
7	Muolaja so'ngida	Salfetka , leykoplaster, pinset qaychi, korsang		Ishlatilgan jihozlar zararsizlantirilaadi va bemorga tinch qulay sharoit yaratiladi.

Amaliy mashg'ulot nomi: Operatsion jarohatdagi bog'lamlarni yangilash.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Tinglovchilarga operatsion jarohatdagi bog'lamlarni yangilash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni o'rgatish.


T/r	Bajariladigan ishlar mazmuni	Kerakli jihozlar	Rasimlar, chizmalar eskizlar	Ishning bajarilish tartibi.
1	2	3	4	5
1	Qo'llarni yuviladi	Suv , sovun , sochiq		1.Qo'llarni yaxshilab sovun bilan yuviladi. 2.Steril sochiq bilan artib quritiladi.

2	Steril qo'lqop kiyiladi.	Steril qo'lqop.		1.Qo'lqoplar kiyiladi, fartuk taqiladi
3	Kerakli jixozlar tayyorlanadi.	Pinset, qaychi, steril salfetka, sharcha, leykoplaster, bint, spirt.		1.Muolaja uchun kerakli jixozlar tayyorlanadi. 2.Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi.
4	Eski bog'lam olinadi.	Latok, pinset, furatsillin eritmasi, noksimon balloncha.		1.Eski bog'lamni yumshatish uchun furatsillin eritmasi yordamida namlanadi. 2.Eski bog'lam pinset yordamida asta sekin olinadi.
5	Jarohatga ishlov beriladi.	Furatsillin, spirt, salfetka, latok, kortsang, antiseptik eritmalar.		1.Jarohat holatiga e'tibor beriladi. 2.Jarohatga antiseptik eritmalar yordamida ishlov beriladi. 3.Jarohat quritiladi.
6	Bog'lam yangilanadi.	Steril salfetka, bint, leykoplaster.		1.Jarohat ustini steril salfetka bilan yopiladi. 2. Jarohatga leykoplaster yoki bintli bog'lam qo'yiladi

Amaliy mashg'ulot nomi: Yotoq yaralarni oldini olish va parvarish qilish.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Yotoq yaralarni parvarish qilish bo'yicha Tinglovchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish

T / R	Bajariladigan ishlar mazmuni.	Moslamalar, asboblari va jihozlari.	Eskizlar, chizmalar va rasmlar	Bajarish tartibi.
1	2	4	3	5

1	Qo'llarni yuviladi	Suv , sovun , sochiq		1.Qo'llarni yaxshilab sovun bilan yuviladi. 2.Steril sochiq bilan artib quritiladi.
2	Steril qo'lqop kiyiladi.	Steril qo'lqop.		1.Qo'lqoplar kiyiladi, fartuk taqiladi
3	Kerakli jixozlar tayyorlanadi.	Pinset, qaychi, steril salfetka, sharcha, leykoplaster, bint, spirt.		1.Muolaja uchun kerakli jixozlar tayyorlanadi. 2.Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi.
4	Bemor ko'zdan kechiriladi.	Steril salfetka, furatsillin eritmasi.		1.Yotoq yara sohasi ochilib ko'zdan kechiriladi.va o'sha soha furatsillin yordamida artiladi.
5	Yaraga ishlov beriladi.	Latok, salfetka, pinset, antiseptic eritmalar.		2.Yotoq yara atrofiga brilliant ko'ki bilan pinset va doka sharcha yordamida ishlov beriladi.
6	Yaraga ishlov beriladi.	Latok, salfetka, pinset, antiseptic eritmalar.		3.Yotoq yara o'rtasi vodorod peroksid eritmasi bilan pinset va doka sharcha yordamida ishlov beriladi

7	Yaraga ishlov beriladi.	Latok, salfетка, pinset, shpatel, dori vositalari.		1.Yotoq yaraga shpatel bilan malham (levamikol mazi) surtiladi va doka yordamida bog'lam qo'yiladi
8	Rezina chamberlar qo'yiladi.	Rezina chamber, jild, oqliklar.		1.Bemor ostiga qo'yish uchun rezina ballonga doirali yostiq jildi kiydiriladi. 2.Yotoq yaralar yuzagakelgan sohalarga qo'yiladi.
9	O'rin joylari tartibga keltiriladi.	Toza choyshab-oqliklar.		1.Bemorning o'rin joylari tartibga keltiriladi, oqliklari almashtiriladi. 2.Vaqti-vaqti bilan bemorning vaziyati o'zgartirib turiladi. 3.Ishlatilgan buyumlar zararsizlantiriladi.

Amaliy mashg'ulot nomi: Operatsiyadan keying davrda bemorlarni zond orqali ovqatlantirish.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Tinglovchilarga Operatsiyadan keying davrda bemorlarni zond orqali ovqatlantirish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni o'rgatish.

T / R	Bajariladigan ishlarning mazmuni.	Kerakli jixozlar	Rasmlar , chizmalar, eskizlar.	Ishning bajarilish tartibi.
1	Qo'llarni yuviladi	Suv , sovun , sochiq		1.Qo'llarni yaxshilab sovun bilan yuviladi. 2.Steril sochiq bilan artiladi.

2	Bir martalik steril qo'lqop kiyiladi.	Steril qo'lqop		1.Qo'lqoplar kiyiladi, fartuk taqiladi
3	Muolaja uchun kerakli jixozlar tayyorlanadi.	Latok, salfetka, 10ml li shpirist, qaynatilgan suv, ovqat massasi.		1.Bemorni taomlantirish uchun kerakli jixozlar va ovqat massasi tayyorlab olinadi. 2. Ovatning harorati me'oriy holga keltiriladi.
4	Bemor ovqatlantirildi.	Suyuq taomlar, qaynatilgan suv, sochiq.		1.Bemorga oshqozon zondi yoki choynaksimon idish orqali ovqat maxsuloti beriladi. 2.Bemorni ovqatlantirib bo'lingach og'iz bo'shlig'i atrofi tozalab qo'yiladi. 3.Ovqatlantirib bo'lingach barcha idishlarni zararsizlantiriladi.

Mavzu : Desmurgiya haqida tushuncha. Bog'lam turlari. Bog'lam quyishning umumiy qoidalari. Bosh, yuz, jag', buyin, elka, ko'krak, bilak, kaft va kaft barmoqlariga yumshoq bog'lamlarni qo'yish.

Tinglovchi bilishi kerak.

- 1.Desmurgiya haqida tushuncha.
- 2.Bog'lamlarning turlari.Yumshoq va qattiq bog'lamlar.
- 3.Bog'lam qo'yish qoidalari.

Tinglovchi bajara olishi kerak.

- 1.Tananing turli sohalariga bintli bog'lam qo'yishni, Elastik bint, to'rsimon elastik bint, bandaj va suspensoriylarni qo'llash.
- 2.Durrachali bog'lam va materiallardan foydalanib bog'lam qo'yishni.
- 3.Tananing turli sohalariga: bosh, yuz, jag', bo'yin sohalariga yumshoq bog'lam qo'yish.
- 4.Tananing turli sohalariga: yelka, bilak, kaft va barmoqlariga yumshoq bog'lam qo'yish

Mavzu bayoni.

Desmurgiya-“desmos”- aloqa, qiyiqcha ma'nolarini anglatadi. Desmurgiya bog'lamlarni bog'lash va qo'llash qoidalari to'g'risidagi ta'limot. Materiallarning qo'llanishiga ko'ra bog'lamlar 2 guruxga **yumshoq** (plasterli, kleolli, kosinkali, bintli) va **qattiq** (dekstrinli, kraxmalli, gipsli) bo'linadi.

Bog'lam qo'yishning umumiy qoidalari.

1. Bemorning umumiy axvoliga qarab yotgan yoki o'tirgan xolatida bog'lam qo'yiladi.
2. Bog'lam qo'yish vaqtida hamshira bemorni doimo nigoxi bilan kuzatib turishi lozim.
3. Bintlash qoidaga ko'ra chetdan markazga tomon, chapdan o'ngga qarab boshlanadi va bog'lanadi.
4. Bintlash har doim mahkamlovchi o'ramdan boshlash kerak.
5. Har bir keyingi bint o'rami oldingisining 1/2 yoki 1/3 qismini yopib ketishi kerak.
6. Bint o'ramini bintlanayotgan yuzadan uzmasdan o'rash kerak.
7. Bintlashni ikki qo'l bilan bajarish kerak: biri bilan bintning boshi yozilib o'raladi, biri bilan o'ramlar tekislanadi.
8. Bintning o'ramlari salqimasligi va bintlanayotgan yuzadan siljimasligi uchun bintni bir tekislikda tortish kerak.
9. Gavdaning bog'lam qo'yilayotgan soxasi bog'lamdan so'ng o'zining anatomik va fiziologik xolatini saqlab qolishi kerak.
10. Spiralsimon bog'lamlarni qo'yishda bintni har 1-2 o'ramdan so'ng bir buklab aylantirib olish kerak.
11. Bog'lash tamom bo'lgach bintning uchini mahkamlash kerak.

Bog'lam qo'yishning tiplari.


1. Sopqonsimon bog'lam.
2. "T"-simon bog'lam.
3. Sirkulyar(aylanma) bog'lam.
4. Krestsimon bog'lam.
5. Spiralsimon bog'lam.
6. Toshbaqasimon bog'lam.
7. O'rmalovchi bog'lam.
8. Boshhoqsimon bog'lam.
9. Qaytuvchi bog'lam.

Mavzuga oid amaliy ko'nikmalar :

Amaliy mashg'ulot nomi: Boshga "Chepets" bog'lamini qo'yish.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Boshga "Chepets" bog'lamini qo'yish texnikasini o'rgatish.

T / R	Bajariladigan ishlar mazmuni	Kerakli jihozlar	Rasmlar, chizmalar, eskizlar	Ishning bajarilish tartibi
1.	Qo'llar yuvib, qo'lqop kiyiladi.	Suyuq sovun, rakovina, suv, rezina qo'lqop.		1. Qo'llar suyuq sovun yordamida 6 bosqichda yuviladi va qo'llar quritiladi. 2. Bir martalik steril qo'lqoplar qoidaga rioya qilgan xolda kiyiladi.

2.	Kerakli jixozlar tayyorlanadi.	Qaychi, pinset, kortsang, latok, bint, salfetka, sharcha, spirt, furatsillin eritmasi, periks vododrod.	 	1. Steril stolga barcha kerakli jixozlar tayyorlab teriladi. 2. Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi. 3. Bog'lam qo'yiladigan soxa teri tuklaridan, sochlardan tozalanadi. 4. Bemorni qulay vaziyatda o'tqizgan yoki yotqizib olgan xolda bog'lam qo'yish boshlanadi.
3.	Jaroxatga ishlov beriladi.	kortsang, latok, bint, salfetka, sharcha, spirt, furatsillin eritmasi, periks vododrod.	 	1. Boshdagi jaroxatga birlamchi xirurgik ishlov beriladi. 2. Jaroxat yuzasi 1:5000 nisbatdagi furatsillin eritmasi yordamida yuviladi va quritiladi. 3. Jaroxatga 3%li periks vodorod yordamida ishlov beriladi, jaroxat yuzasi quritilgach 96% li spirt yordamida ishlov beriladi.
4.	Bog'lam qo'yish boshlanadi.	Bint, salfetka, qaychi, spirt 96%		1. Jaroxat yuzasi steril salfetka yordamida yopiladi. 2. Chepets bog'lami uchun 10sm li bint ishlatiladi. 3. 80-90 sm uzunlikda bint bo'lagi qirqib olinadi, boshning yuqori soxasidan, quloq old tomonidan iyakka tomon tushuriladi. 4. Peshona soxasidan mustaxkamlovchi o'ram bilan bog'lam boshlanadi. 5. Bint o'ramlari ushlab turuvchi bog'ichdan navbatma navbat o'rab boriladi, toki jaroxat yuzasi yopilgunga qadar. 6. Bog'lamning oxirida bintni iyak soxasiga bog'lab yakunlanadi.

5.	Ish joyi tartibga keltiriladi.	Konteyner, vetosh, dez eritma.		1. Ish joyi tartibga keltiriladi. 2. Ishlatilgan barcha buyumlar zararsizlantiriladi. 3. Navbatdagi muolaja uchun ish joyi va steril stol tayyorlab qo'yiladi.
----	--------------------------------	--------------------------------	---	--

Amaliy mashg'ulot nomi: Boshga "Gippokrat qalpog'i" bog'lamini qo'yish.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Boshga "Gippokrat qalpog'i" bog'lamini qo'yish texnikasini o'rgatish.


T/R	Bajariladigan ishlar mazmuni	Kerakli jihozlar	Rasmlar, chizmalar, eskizlar	Ishning bajarilish tartibi
1.	Qo'llar yuvib, qo'lqop kiyiladi.	Suyuq sovun, rakovina, suv, rezina qo'lqop.		1. Qo'llar suyuq sovun yordamida 6 bosqichda yuviladi va qo'llar quritiladi. 2. Bir martalik steril qo'lqoplar qoidaga rioya qilgan xolda kiyiladi.
2.	Kerakli jixozlar tayyorlanadi.	Qaychi, pinset, kortsang, latok, bint, salfetka, sharcha, spirt, furatsillin eritmasi, periks vododrod.		1. Steril stolga barcha kerakli jixozlar tayyorlab teriladi. 2. Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi. 3. Bog'lam qo'yiladigan soxa teri tuklaridan, sochlardan tozalanadi. 4. Bemorni qulay vaziyatda o'tqizgan yoki yotqizib olgan xolda bog'lam qo'yish boshlanadi.
3.	Jaroxatga ishlov beriladi.	kortsang, latok, bint, salfetka, sharcha, spirt, furatsillin eritmasi, periks vododrod.		1. Boshdagi jaroxatga birlamchi xirurgik ishlov beriladi. 2. Jaroxat yuzasi 1:5000 nisbatdagi furatsillin eritmasi yordamida yuviladi va quritiladi. 3. Jaroxatga 3%li periks vodorod yordamida ishlov beriladi, jaroxat yuzasi quritilgach 96% li spirt yordamida ishlov beriladi.

4.	Bog'lam qo'yish boshlanadi.	Bint, salfetka, qaychi, spirt 96%		1. Jaroxat yuzasi steril salfetka yordamida yopiladi. 2. Gippokrat qalpog'i bog'lami uchun 10sm li 2 ta bint ishlatiladi. 3. Peshona soxasidan mustaxkamlovchi o'ram bilan bog'lam boshlanadi. 5. Bint o'ramlari peshona soxasida mustaxkamlangach boshning yuqori soxasidan 2-bint o'ramlari peshonadan ensa soxasiga tomon yo'naltiriladi. 6. Xar bir yopuvchi qavatni mustaxkamlovchi bint o'rami bosib o'tishi kerak. 7. Navbatma-navbat yo'naltirilgan bint o'ramlari jaroxat yuzasini to'liq yopishi kerak. 6. Bog'lamning oxirida bintni peshona soxasiga bog'lab yakunlanadi.
5.	Ish joyi tartibga keltiriladi.	Konteyner, vetosh, dez eritma.		1. Ish joyi tartibga keltiriladi. 2. Ishlatilgan barcha buyumlar zararsizlantiriladi. 3. Navbatdagi muolaja uchun ish joyi va steril stol tayyorlab qo'yiladi.

Amaliy mashg'ulot: Ensaga soxasiga "Krestsimon" bog'lamini qo'yish.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Ensaga soxasiga "Krestsimon" bog'lamini qo'yish texnikasini o'rgatish.

T / R	Bajariladigan ishlar mazmuni	Kerakli jihozlar	Rasmlar, chizmalar, eskizlar	Ishning bajarilish tartibi
1.	Qo'llar yuvib, qo'lqop kiyiladi.	Suyuq sovun, rakovina, suv, rezina qo'lqop.		1. Qo'llar suyuq sovun yordamida 6 bosqichda yuviladi va qo'llar quritiladi. 2. Bir martalik steril qo'lqoplar qoidaga rioya qilgan xolda kiyiladi.

2.	Kerakli jixozlar tayyorlanadi.	Qaychi, pinset, kortsang, latok, bint, salfetka, sharcha, spirt, furatsillin eritmasi, periks vododrod.		1.Steril stolga barcha kerakli jixozlar tayyorlab teriladi. 2.Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi. 3.Bog'lam qo'yiladigan soxa teri tuklaridan, sochlardan tozalanadi. 4.Bemorni qulay vaziyatda o'tqizgan yoki yotqizib olgan xolda bog'lam qo'yish boshlanadi.
3.	Jaroxatga ishlov beriladi.	kortsang, latok, bint, salfetka, sharcha, spirt, furatsillin eritmasi, periks vododrod.		1.Boshdagi jaroxatga birlamchi xirurgik ishlov beriladi. 2.Jaroxat yuzasi 1:5000 nisbatdagi furatsillin eritmasi yordamida yuviladi va quritiladi. 3.Jaroxatga 3%li periks vodorod yordamida ishlov beriladi, jaroxat yuzasi quritilgach 96% li spirt yordamida ishlov beriladi.
4.	Bog'lam qo'yish boshlanadi.	Bint, salfetka, qaychi, spirt 96%		1.Jaroxat yuzasi steril salfetka yordamida yopiladi. 2.Ensa soxasiga krestitsimon bog'lam qo'yish uchun 7-8 sm li bint ishlatiladi. 3.Peshona soxasidan mustaxkamlovchi o'ram bilan bog'lam boshlanadi. 4.Bint o'ramlari peshonadan ensa soxasiga quloqning yuqori qismidan o'tkizgan xolda yo'naltiriladi. 5.Ensa soxasidan bo'yin tomonga bint o'rami yo'naltiriladi, bo'yin soxasidan aylanib o'tib ensa soxasiga yuqorilab boriladi va peshona soxasiga yo'naltiriladi. 6.Peshonadan mustaxkamlanib yana qaytadan ensa soxasiga bint o'ramlari yo'naltiriladi,


				yuqoridagi xarakatlar algoritmi qaytariladi. 7.Navbatma-navbat yo'naltirilgan bint o'ramlari jaroxat yuzasini to'liq yopishi kerak. 6.Bog'lamning oxirida bintni peshona soxasiga bog'lab yakunlanadi.
5.	Ish joyi tartibga keltiriladi.	Konteyner, vetosh, dez eritma.		1.Ish joyi tartibga keltiriladi. 2.Ishlatilgan barcha buyumlar zararsizlantiriladi. 3.Navbatdagi muolaja uchun ish joyi va steril stol tayyorlab qo'yiladi.

Amaliy mashg'ulot: Peshona, burun, jag' soxasiga "Sopqonsimon" bog'lam qo'yish.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Peshona, burun, jag' soxalariga "Sopqonsimon" bog'lamini qo'yish texnikasini o'rgatish.

T/R	Bajariladigan ishlar mazmuni	Kerakli jihozlar	Rasmlar, chizmalar, eskizlar	Ishning bajarilish tartibi
1.	Qo'llar yuvib, qo'lqop kiyiladi.	Suyuq sovun, rakovina, suv, rezina qo'lqop.		1.Qo'llar suyuq sovun yordamida 6 bosqichda yuviladi va qo'llar quritiladi. 2. Bir martalik steril qo'lqoplar qoidaga rioya qilgan xolda kiyiladi.
2.	Kerakli jixozlar tayyorlanadi.	Qaychi, pinset, kortsang, latok, bint, salfetka, sharcha, spirt, furatsillin eritmasi, periks vododrod.		1.Steril stolga barcha kerakli jixozlar tayyorlab teriladi. 2.Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi. 3.Bog'lam qo'yiladigan soxa teri tuklaridan tozalanadi. 4.Bemorni qulay vaziyatda o'tqizgan xolda bog'lam qo'yish boshlanadi.


3.	Jaroxatga ishlov beriladi.	kortsang, latok, bint, salfetka, sharcha, spirt, furatsillin eritmasi, periks vododrod.		1.Peshona, burun, jag' soxasidagi jaroxatga birlamchi xirurgik ishlov beriladi. 2.Jaroxat yuzasi 1:5000 nisbatdagi furatsillin eritmasi yordamida yuviladi va quritiladi. 3.Jaroxatga 3%li periks vodorod yordamida ishlov beriladi, jaroxat yuzasi quritilgach 96% li spirt yordamida ishlov beriladi.
4.	Bog'lam qo'yish boshlanadi .	Bint, salfetka, qaychi, spirt 96%		1.Jaroxat yuzasi steril salfetka yordamida yopiladi. 2.Sopqonsimon bog'lam uchun 7-8 smli bint ishlatiladi. 3.Peshona, burun yoki jag' soxasini o'Ichovi olib bint bo'lagi qirqib olinadi. Tayyor bint bo'lagini ikki tomonidan qirqib olinadi. 4.Jaroxat yuzasini steril salfetka yordamida yopiladi. 5.Burun soxasiga sopqonsimon bog'lam qo'yishda tayyor qirqilgan bintni yuqori uchini quloqning pastki qismidan, pastki uchini esa quloqning yuqori qismidan olib o'tib ensa soxasida bog'lanadi. 6.Jag' soxasiga sopqonsimon bog'lam qo'yishda tayyor qirqilgan bint uchlarini pastki uchini quloqning old tomonidan olib o'tib boshning yuqori qismiga, bintning yuqori uchini esa quloqning yuqori qismidan olib o'tib boshning orqa

				ensa soxasiga bog'lab yakunlanadi. 7.Bog'lam qo'yilganda bint uchlari kesishma xosil qilishi kerak.
5.	Ish joyi tartibga keltiriladi.	Konteyner, vetosh, dez eritma.		1.Ish joyi tartibga keltiriladi. 2.Ishlatilgan barcha buyumlar zararsizlantiriladi. 3.Navbatdagi muolaja uchun ish joyi va steril stol tayyorlab qo'yiladi.

Amaliy mashg'ulot nomi: Bir va ikki ko'zga "Binokulyar" va "Monokulyar" bog'lam qo'yish.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Bir va ikki ko'zga "Binokulyar" va "Monokulyar" bog'lamlarini qo'yish texnikasini o'rgatish.


T/R	Bajariladigan ishlar mazmuni	Kerakli jihozlar	Rasmlar, chizmalar, eskizlar	Ishning bajarilish tartibi
1.	Qo'llar yuvib, qo'lqop kiyiladi.	Suyuq sovun, rakovina, suv, rezina qo'lqop.		1.Qo'llar suyuq sovun yordamida 6 bosqichda yuviladi va qo'llar quritiladi. 2. Bir martalik steril qo'lqoplar qoidaga rioya qilgan xolda kiyiladi.
2.	Kerakli jixozlar tayyorlanadi.	Qaychi, pinset, kortsang, latok, bint, salfetka, sharcha, spirt, furatsillin eritmasi.		1.Steril stolga barcha kerakli jixozlar tayyorlab teriladi. 2.Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi. 3.Bemorni qulay vaziyatda o'tqizgan xolda bog'lam qo'yish boshlanadi.



3.	Jaroxatga ishlov beriladi.	kortsang, latok, bint, salfetka, sharcha, spirt, furatsillin eritmasi.		1.Ko'z soxasidagi jaroxatga birlamchi xirurgik ishlov beriladi. 2.Jaroxat yuzasi 1:5000 nisbatdagi furatsillin eritmasi yordamida yuviladi va quritiladi. 3.Jaroxat yuzasi quritilgach 96% li spirt yordamida ishlov beriladi.
4.	Bog'lam qo'yish boshlanadi.	Bint, salfetka, qaychi, spirt 96%		1.Jaroxat yuzasi steril salfetka yordamida yopiladi. 2.Bog'lam peshona soxasidan mustaxkamlovchi o'ram bilan boshlanadi. 3.Bint o'rami peshona soxasidan o'ng ko'zga tomon yo'naltiriladi, quloq ostidan olib o'tibensa soxasidan peshona tomon yo'naltiriladi. 4.Yuqoridagi xarakatlar qaytariladi, shu tarzda davom ettirilsa bu Monokulyar bog'lam bo'ladi. 5.Yuqoridagi xarakatlar davom ettirilib bint o'rami peshonadan aylantirib ensa tomon yo'naltiriladi va quloqning ostidan olib o'tib chap ko'z tomon bint olib boriladi va peshonadan aylantirib olib o'tiladi. 6.Xarakatlar algoritmi navbatma-navbat qaytariladi 7.Bog'lam oxirida bintni peshona soxasida bog'lab yakunlanadi.

5.	Ish joyi tartibga keltiriladi.	Konteyner, vetosh, dez eritma.		1. Ish joyi tartibga keltiriladi. 2. Ishlatilgan barcha buyumlar zararsizlantiriladi. 3. Navbatdagi muolaja uchun ish joyi va steril stol tayyorlab qo'yiladi.
----	--------------------------------	--------------------------------	---	--

Amaliy mashg'ulot nomi: Ko'krak qafasiga "Spiralsimon" bog'lam qo'yish.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Ko'krak qafasiga "Spiralsimon" bog'lam qo'yish texnikasini o'rgatish.

T/R	Bajariladigan ishlar mazmuni	Kerakli jihozlar	Rasmlar, chizmalar, eskizlar	Ishning bajarilish tartibi
1	2	3	4	5
1.	Qo'llar yuvib, qo'lqop kiyiladi.	Suyuq sovun, rakovina, suv, rezina qo'lqop.		1. Qo'llar suyuq sovun yordamida 6 bosqichda yuviladi va qo'llar quritiladi. 2. Bir martalik steril qo'lqoplar qoidaga rioya qilgan xolda kiyiladi.
2.	Kerakli jixozlar tayyorlanadi.	Qaychi, pinset, kortsang, latok, bint, salfetka, sharcha, spirt, furatsillin eritmasi, periks vododrod.		1. Steril stolga barcha kerakli jixozlar tayyorlab teriladi. 2. Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi. 3. Bog'lam qo'yiladigan soxa teri tuklaridan tozalanadi. 4. Bemorni qulay vaziyatda o'tqizgan xolda bog'lam qo'yish boshlanadi.
3.	Jaroxatga ishlov beriladi.	kortsang, latok, bint, salfetka, sharcha, spirt, furatsillin eritmasi, periks vododrod.		1. Jaroxat yuzasi 1:5000 nisbatdagi furatsillin eritmasi yordamida yuviladi va quritiladi. 2. Jaroxatga 3%li periks vodorod yordamida ishlov beriladi, jaroxat yuzasi quritilgach 96% li spirt yordamida ishlov beriladi.

4.	Bog'lam qo'yish boshlanadi .	Bint, salfetka, qaychi, spirt 96%	 	1.Jaroxat yuzasi steril salfetka yordamida yopiladi. 2.Spiralsimon bog'lam uchun 10-12 smli bint ishlatiladi. 3.Ko'krak soxasini o'lchab bint bo'lagi qirqib olinadi 4.Jaroxat yuzasini steril salfetka yordamida yopiladi. 5.Yelka ustidan teng qismda bint bo'lagini gavdaning old va orqa tomoniga tushuriladi. 6.Bog'lam ko'krak qafasining quyi qismidan mustaxkamlovchi o'ram bilan boshlanadi. 7.Ko'krak qafasining yuqori qismi tomon spiralsimon o'ramlar bilan bog'lam davom ettiriladi. 8.Har bir o'ram keyingi o'ramning 3/2 qismini qoplab o'tishi kerak. 9.Bog'lam yakunida avvaldan qo'yilgan ushlab turuvchi bog'ich qaytariladi va ikkinchi yelka uchida bog'lab, bog'lam yakunlanadi.
5.	Ish joyi tartibga keltiriladi.	Konteyner, vetosh, dez eritma.		1.Ish joyi tartibga keltiriladi. 2.Ishlatilgan barcha buyumlar zararsizlantiriladi. 3.Navbatdagi muolaja uchun ish joyi va steril stol tayyorlab qo'yiladi.

Amaliy mashg'ulot nomi: Son soxasiga "Spiralsimon" bog'lam qo'yish.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Son soxasiga "Spiralsimon" bog'lam qo'yish texnikasini o'rgatish.


T / R	Bajariladigan ishlar mazmuni	Kerakli jihozlar	Rasmlar, chizmalar, eskizlar	Ishning bajarilish tartibi
1.	Qo'llar yuvib, qo'lqop kiyiladi.	Suyuq sovun, rakovina, suv, rezina qo'lqop.	 	1.Qo'llar suyuq sovun yordamida 6 bosqichda yuviladi va qo'llar quritiladi. 2. Bir martalik steril qo'lqoplar qoidaga rioya qilgan xolda kiyiladi.

2	Kerakli jixozlar tayyorlanadi.	Qaychi, pinset, kortsang, latok, bint, salfetka, sharcha, spirt, furatsillin eritmasi, periks vododrod.		1.Steril stolga barcha kerakli jixozlar tayyorlab teriladi. 2.Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi. 3.Bog'lam qo'yiladigan soxa teri tuklaridan tozalanadi. 4.Bemorni qulay vaziyatda o'tqizgan xolda bog'lam qo'yish boshlanadi.
3	Bemorni muolajaga tayyorlanadi.	Xirurgik asboblari, antiseptik eritmalar, bog'lov materiallari.		1.Bemorning jarohatlangan soxasiga xirurgik ishlov beriladi. 2.Jaroxat yuzasi steril salfetka bilan yopiladi. 3.Bintlash boshlanadi.
4	Bog'lam qo'yish boshlanadi.	Bint, salfetka, qaychi.		1.Bintlash sonning quyi qismidan mustahkamlovchi o'ram bilan boshlanadi. 2.Bint o'ramlari navbatma navbat sonning yuqori qismiga qarab 2/3 qismini bosib o'tgan holatda yo'naltirib boriladi. 3.Bintlash yakunida jaroxatdan uzoqda bog'lab yakunlanadi.


Amaliy mashg'ulot nomi: Tizza soxasiga "Toshbaqasimon" bog'lam qo'yish.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Tizza soxasiga "Toshbaqasimon" bog'lam qo'yish texnikasini o'rgatish.

T/R	Bajariladigan ishlar mazmuni	Kerakli jihozlar	Rasmlar, chizmalar, eskizlar	Ishning bajarilish tartibi
1.	Qo'llar yuvib, qo'lqop kiyiladi.	Suyuq sovun, rakovina, suv, rezina qo'lqop.		1.Qo'llar suyuq sovun yordamida 6 bosqichda yuviladi va qo'llar quritiladi. 2. Bir martalik steril qo'lqoplar qoidaga rioya qilgan xolda kiyiladi.

2.	Kerakli jixozlar tayyorlanadi.	Qaychi, pinset, kortsang, latok, bint, salfetka, sharcha, spirt, antiseptik eritmalar.		1. Steril stolga barcha kerakli jixozlar tayyorlab teriladi. 2. Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi. 3. Bog'lam qo'yiladigan soxa teri tuklaridan tozalanadi. 4. Bemorni qulay vaziyatda o'tqizgan xolda bog'lam qo'yish boshlanadi.
3.	Bemorni muolajaga tayyorlanadi.	Xirurgik asboblari, antiseptik eritmalar, bog'lov materiallari.		1. Bemorning jarohatlangan soxasiga xirurgik ishlov beriladi. 2. Jaroxat yuzasi steril salfetka bilan yopiladi. 3. Bintlash boshlanadi.
4	Bog'lam boshlanadi.	Bint, steril salfetka.		1. Bintlash tizza soxasidan mustahkamlovchi o'ram bilan boshlanadi. 2. Bint o'ramlari 4-5 marotaba jarohat ustini yopgach tizza sohasining ikki tomonidan ya'ni yuqori va quyi qismidan olib o'tiladi. 3. Bint o'ramlari ikki tomonga tarqalib boradi va yakunida boldir soxasida tugatiladi.

Amaliy mashg'ulot nomi: Oyoq kaft sohasiga "Sakkizsimon" bog'lam qo'yish.
Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Oyoq kaft soxasiga "Sakkizsimon" bog'lam qo'yish texnikasini o'rgatish.

T / R	Bajariladigan ishlar mazmuni	Kerakli jihozlar	Rasmlar, chizmalar, eskizlar	Ishning bajarilish tartibi
1.	Qo'llar yuvib, qo'lqop kiyiladi.	Suyuq sovun, rakovina, suv, rezina qo'lqop.		1.Qo'llar suyuq sovun yordamida 6 bosqichda yuviladi va qo'llar quritiladi. 2. Bir martalik steril qo'lqoplar qoidaga rioya qilgan xolda kiyiladi.
2.	Kerakli jixozlar tayyorlanadi.	Qaychi, pinset, kortsang, latok, bint, salfetka, sharcha, spirt, furatsillin eritmasi, periks vododrod.		1.Steril stolga barcha kerakli jixozlar tayyorlab teriladi. 2.Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi. 3.Bog'lam qo'yiladigan soxa teri tuklaridan tozalanadi. 4.Bemorni qulay vaziyatda o'tqizgan xolda bog'lam qo'yish boshlanadi.
3.	Bemorni muolajaga tayyorlanadi.	Xirurgik asboblari, antiseptik eritmalar, bog'lov materiallari.		1.Bemorning jarohatlangan soxasiga xirurgik ishlov beriladi. 2.Jaroxat yuzasi steril salfetka bilan yopiladi. 3.Bintlash boshlanadi.
4.	Muolaja boshlanadi.	Bint, xirurgik asboblari, antiseptik eritmalar.		1.Bintlash oyoqning to'piq soxasida mustahkamlovchi o'ram bilan boshlanadi. 2.Bintni oyoq kaftining ustki qismidan yo'naltiriladi va oyoq kaftining atrofi bilan aylantiriladi. 3.Bint 8 raqami yo'nalishi bo'ylab aylantiriladi. 4.Bintlashning yakunida boldir qismida yakunlanadi.

Amaliy mashg'ulot nomi: Oyoqning bosh barmog'iga yumshoq bog'lam qo'yish.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Oyoqning bosh barmog'iga yumshoq bog'lam qo'yish texnikasini o'rgatish.

T/R	Bajariladigan ishlar mazmuni	Kerakli jihozlar	Rasmlar, chizmalar, eskizlar	Ishning bajarilish tartibi
1.	Qo'llar yuvib, qo'lqop kiyiladi.	Suyuq sovun, rakovina, suv, rezina qo'lqop.		1.Qo'llar suyuq sovun yordamida 6 bosqichda yuviladi va qo'llar quritiladi. 2. Bir martalik steril qo'lqoplar qoidaga rioya qilgan xolda kiyiladi.
2.	Kerakli jixozlar tayyorlanadi.	Qaychi, pinset, kortsang, latok, bint, salfetka, sharcha, spirt, antiseptik eritmalar.		1.Steril stolga barcha kerakli jixozlar tayyorlab teriladi. 2.Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi. 3.Bog'lam qo'yiladigan soxa teri tuklaridan tozalanadi. 4.Bemorni qulay vaziyatda o'tqizgan xolda bog'lam qo'yish boshlanadi.
3.	Bemorni muolajaga tayyorlanadi.	Xirurgik asboblari, antiseptik eritmalar, bog'lov materiallari.		1.Bemorning jarohatlangan soxasiga xirurgik ishlov beriladi. 2.Jaroxat yuzasi steril salfetka bilan yopiladi. 3.Bintlash boshlanadi.
4.	Bintlash boshlanadi.	Bint, xirurgik asboblari, antiseptik eritmalar.		1.Bintlash oyoqning to'piq sohasidan mustahkamlash bog'lam bilan boshlanadi. 2.Bint oyoqning bosh barmog'iga tomon yo'naltiriladi. 3.Bosh barmoqning atrofi bilan aylantiriladi, ortiqcha qismi tirnoq tomon qaytariladi. 4.Bintlash oyoqning to'piq qismida yakunlanadi.

Amaliy mashg'ulot: Gips sifatini aniqlash.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Tinglovchilarga gips sifatini aniqlash texnikasini o'rgatish.

T/R	Bajariladigan ishlar mazmuni	Kerakli jihozlar	Rasmlar, chizmalar, eskizlar	Ishning bajarilish tartibi
1.	Qo'llar yuvib, qo'lqop kiyiladi.	Suyuq sovun, rakovina, suv, rezina qo'lqop.		1.Qo'llar suyuq sovun yordamida 6 bosqichda yuviladi va qo'llar quritiladi. 2. Bir martalik steril qo'lqoplar qoidaga rioya qilgan xolda kiyiladi.
2.	Kerakli jixozlar tayyorlanadi.	Gips kukuni.		1.Gips 140 gradus haroratda qizdirilgan kalsiy sulfatdir.Qizdirilgandan so'ng u osongina mayda oq kukunga aylanadi.
3.	Gips sifatini aniqlash.	Gips kukuni, suv, idish		1.Gips sifatini aniqlash uchun teng miqdorda gips bilan suv olib aralashtiriladi, hosil qilingan massa 5-7 daqiqa ichida qotishi, bosib ko'rilganda sinishi, biroq kukunga aylanmasligi kerak.
4.	Gips kukunini sifatini tekshirish	Gips kukuni.		1.Gips kukunini qisimlab siqilganda sifati yaxshi va quruq bo'lsa u sochiladi, yomon va nam bo'lsa, qumoq – qumoq bo'lib qoladi.
5	Ish joyi tartibga keltiriladi.	Konteyner, vetosh.		1.Ish joyi tartibga keltiriladi. 2.Navbatdagi muolaja uchun ish joyi va steril stol tayyorlab qo'yiladi.

Amaliy mashg'ulot: Gipsli langeta tayyorlash.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Tinglovchilarga gipsli langetali bog'lamini qo'yish texnikasini o'rgatish.

T/R	Bajariladigan ishlar mazmuni	Kerakli jihozlar	Rasmlar, chizmalar, eskizlar	Ishning bajarilish tartibi
1.	Qo'llar yuvib, qo'lqop kiyiladi.	Suyuq sovun, rakovina, suv, rezina qo'lqop.		1. Qo'llar suyuq sovun yordamida 6 bosqichda yuviladi va qo'llar quritiladi. 2. Bir martalik steril qo'lqoplar qoidaga rioya qilgan xolda kiyiladi.
2.	Kerakli jihozlar tayyorlanadi.	Qaychi, bint, gips parashogi.		1. Gipsli bog'lam qo'yishdan avval keng parta tayyorlanadi. 2. Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi. 3. Bog'lam qo'yiladigan soxa teri tuklaridan tozalanadi. 4. Bemorni qulay vaziyatda o'tqizgan xolda bog'lam tayyorlanadi.
3.	Langeta tayyorlanadi	Qaychi, bint, gips parashogi, shpatel, doka, paxta.		1. Shikastlangan soha ikki bo'g'inni qamrab olib o'lchanadi va bintga belgi qo'yiladi. 2. Bintni belgilangan qismigacha tekkis qilib yoziladi. 3. Gips kukuni 2 mm qalinlikda bint ustiga tekkis qilib yoziladi. 4. Shu holatda 7 qavat qilib tayyorlanadi va ohirgi qavat yopuvchi qavat sifatida yopiladi. 5. Langeta yig'ilib tog'oradagi suvga solinadi.

4	Gipsli bog'lam qo'yiladi	Qaychi, bint, gips parashogi, shpatel, doka, paxta.		1.Suvga solingan langetadan havo pufakchalari chiqib bo'lgach langeta bir oz siqib suvdan olinadi. 2.Langetani tekkislanadi. 3.Langeta 2 qavat bint bilan o'raladi va belgilangan sohaga paxtali doka ustidan qo'l yoki oyoqning shakliga moslab qo'yiladi. 4.Gipsli langeta ustidan bint bilan o'ram qo'yiladi.
7	Ish joyi tartibga keltiriladi.	Konteyner, vetosh, dez eritma.		1.Ish joyi tartibga keltiriladi. 2.Ishlatilgan barcha buyumlar zararsizlantiriladi. 3.Navbatdagi muolaja uchun ish joyi va steril stol tayyorlab qo'yiladi.

Mavzu : Infuziya va transfuziya. Qon guruhlari rezus faktorni aniqlash usullari. Individual va biologik moslikni aniqlash.

Tinglovchi bilishi kerak.

- 1.Infuziya va transfuziya haqida tushuncha.
- 2.Qon guruxi va rezus factor haqida tushuncha.
- 3.Individual va biologik moslik haqida tushuncha.

Tinglovchi bajara olishi kerak.

- 1.Qon guruhi va rezus omilni aniqlash usullari.
- 2.Individual va biologik moslikni aniqlash usullari.
- 3.Qon guruxi va Rh faktorni kasallik tarixiga qayd etish.

Mavzu bayoni.

Infuziya-bu vena qon tomirlari orqali suyuqliklarni kiritish usuli hisoblanadi. Transfuziya-bu vena qon tomirlari orqali qon va qon preparatlarini kiritish usulidir. 1901-yilda Landshteyner tomonidan o'zining tadqiqotlarida qon guruxlarini 3 guruxga ajratdi. 4-qon guruxini esa 1910-yilda Amerikalik olim Mass tomonidan tadqiqotlar natijasida aniqlangan. Qon guruxlarga ajratilganda qon tarkibidagi eritrositlar tarkibidagi agglyutinogenlar, qon zardobida esa agglutininlarning borligiga e'tibor beriladi.

Qon guruxi.	Eritrositlar (Agglutinogenlar)	Plazma (Agglutininlar)
O (I) _{a,b}	Agglutinogen yo'q	a,b
A (II) _b	Agglutinogen A	Agglutinin alfa,
B (III) _a	Agglutinogen B	Agglutinin betta
AB (IV)	Agglutinogen A,B	Agglutinin alfa
		Agglutinin yo'q

Rezus omilni 1939-yil Amerikalik olim Vinner Macacus rhesus maymun qonida aniqlangan. Rh omil o'ziga xos oqsil fraktsiyalari bo'lib ular eritrositlar qobig'ida bo'ladi. Insonlar qonida bu oqsilni 1941-yil Landshteyner o'z tadqiqotlari natijasida topadi. Dunyo bo'yicha 85% odam qonida shu oqsil bo'ladi bu Rh⁺(musbat), 15% odam qonida shu oqsil bo'lmaydi bu Rh⁻(manfiy) deb belgilanadi. Donor-bu qon beruvchi inson, Retsipient- bu qon oluvchi inson hisoblanadi.

Individual mosligini sinash. Quyiladigan (donor qoni) qonning retsipyent qoni bilan individual mos kelish-kelmasligi quyida-gicha sinab ko'riladi. Bemor venasidan olingan qon (5 ml) natriy sitrat bilan sentrifugalanadi yoki tindirib qo'yiladi. 1—2 tomchi bemor qoni plazmasi bir tomchi donor qoni bilan aralashtiriladi. Agglutinatsiya reaksiyasi ro'y bersa, donor qoni bemor qoni bilan mos kelmaydi, aksincha, agglutinatsiya ro'y bermasa, mos keladi.


Biologik mosligini sinash. Biologik moslikka sinash donor qonini retsipyentga quyishda uni bo'lib yuborishdan iborat (qon 25 ml dan 3 daqiqalik tanaffus bilan 3 marta yuboriladi). Retsipyentda gemodinamika buzilishlari qayd qilinmasa va shikoyatlar bo'lmasa, sinama manfiy sanaladi, qon quyish mumkin bo'ladi. Bemor bezovtalansa, beli og'risa, eti uvushsa va shu kabi hodisalar ro'y bersa, sinamaga musbat baho beriladi, qon quyish zudlik bilan to'xtatiladi, bemor esa maxsus kuzatib turiladi.

Mavzuga oid amaliy ko'nikmalar :

Amaliy mashg'ulot nomi: Qon guruxini standart usulda aniqlash.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Qon guruxini standart usulda aniqlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarini shakillantirish.

T / R	Bajariladigan ishlar mazmuni	Kerakli jihozlar	Rasmlar, chizmalar, eskizlar	Ishning bajarilish tartibi
1.	Qo'llar yuviladi, qo'lqoplar kiyiladi.	Suyuq sovun, suv, rakovina, salfetka, rezina qo'lqop.		1.Qo'llar suyuq sovun yordamida 6 bosqichda yuviladi va qo'llar quritiladi. 2. Bir martalik steril qo'lqoplar qoidaga rioya qilgan xolda kiyiladi.
2.	Jixozlar tayyorlanadi.	Petri tarelkasi, standart zardob, pipetka, shisha tayoqcha, spirt, sharcha, qum soat, skarifikator.		1.Kerakli jixozlar tayyorlanadi. 2.Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi. 3.Muolaja xonasida bajariladi.

3		Skarifikators pirt, sharcha.		1.Bemorning nomsiz barmog'i spirtli sharcha yordamida ikki marotaba Aseptik ishlov beriladi. 2.Bir martalik skarifikator yordamida teri butunligi buziladi. 3.birinchi chiqqan qonni quruq paxta sharchasida artiladi. 4.Keyingi chiqqan qonni seriyalangan maxsus tarelkaga 1-2 tomchidan tomiziladi.
4		Standar zardob, pipetka, shisha tayoqcha, qum soat.		1.Qon tomchisiga aloxida pipetka yordamida standart zardob 1-tomchidan tomiziladi. 2.1-qon tomchiga "A"zardob 2-qon tomchiga "B"zardob 3-qon tomchiga"D"zardob tomiziladi.
5		Shisha tayoqcha, qum soati.		1.Standar zardob tomizilgach aloxida shisha tayoqcha yordamida bir tomonga qilib aylantirladi. 2.Qum soatni aylantirib vaqt belgilanadi. 3.Qon tomchisida ro'y berayotgan agglyutinatsiya reaksiyasiga e'tibor beriladi.
6	Natijani baxolanad	Maxsus seriyalangan tarelka.		1.Agarda I,II,III-tomchida agglyutinatsiya reaksiyasi ro'y bermasdan o'zgarishsiz bo'lsa I-qon guruxi deb baxolanadi. 2.I va III qon tomchisida agglyutinatsiya reaksiyasi ro'y bersa II- tomchi o'zgarishsiz qolsa II-qon guruxi deb baxolanadi. 3.I va II qon tomchilarida agglyutinatsiya reaksiyasi ro'y bersa u xolda III-qon guruxi deb baxolanadi.

7	Natijani qayd etiladi.	Maxsus qayd varaqasi.	Пациент: КИРТИНОВ Организация: 2019-1710 Р.К.ИИИИИИ Пол: ж.к. Возраст: дата рождения: 03.08.2000 Группа крови и резус-фактор <table><tr><td>Исследование:</td><td>Результат:</td></tr><tr><td>Группа крови</td><td>0 (I)</td></tr><tr><td>Резус-фактор (Rh)</td><td>(-) отрицательный</td></tr></table> Исследования: Исследования: "ИИИИИ" от 24.11.2019 16:30 Исследования: 24.11.2019 16:30 Исследования: 24.11.2019 16:30 1.Natijaga to'liq ishonch xosil qilingach maxsus qon guruxi uchun varaqaga shifokor tomonidan yozib imzolab muxurlab beriladi.	Исследование:	Результат:	Группа крови	0 (I)	Резус-фактор (Rh)	(-) отрицательный
Исследование:	Результат:								
Группа крови	0 (I)								
Резус-фактор (Rh)	(-) отрицательный								
8	Ish yakunlana di.	Vetosh, chiqindi uchun konteyner.	 1.Ish joyi tartibga keltirladi. 2.Ishlatilgan barcha buyumlar zararsizlantiriladi. 3.Navbatdagi muolaja uchun ish joyi va steril stol tayyorlab qo'yiladi.						

Mavzu. Infuziya va transfuziya. Qonni quyishga yaroqliligini aniqlash. Venoseksiya va venopunktsiya qilish uchun asbob-anjomlar tayyorlash. Qon va qon o'rnini bosuvchi suyuqliklar quyish vaqtida va undan so'ng bemorlarni kuzatish va yuzaga kelgan asoratlarda birinchi tibbiy yordam.

Tinglovchi bilishi kerak.

- 1.Infuziya va Transfuziya haqida tushuncha.
- 2.Qon quyish uchun ko'rsatma va moneliklar.
- 3.Venoseksiya va Venopunktsiya haqida tushuncha.
- 4.Qon va qon o'rnini bosuvchi suyuqliklar.

Tinglovchi bajara olishi kerak.

- 1.Qonni quyishga yaroqliligini aniqlash.
- 2.Venoseksiya va venopunktsiya qilish uchun asbob-anjomlar tayyorlash.
- 3.Qon quyish uchun bemorlarni tayyorlash.
- 4.Qon va qon o'rnini bosuvchi suyuqliklar quyish vaqtida va undan so'ng bemorlarni kuzatish va yuzaga kelgan asoratlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.

Mavzu bayoni.

Qon quyish- tirik to'qimani ko'chirib o'tkazish bo'lib, bemor organizmiga har tomonlama ta'sir qiladi. Shuning uchun bu mut-laq ko'rsatmalar bo'lganda bajarilishi kerak. Hozirgi kunda transfuziologiya maxsus fan sifatida ajralib chiqdi. Gemoterapiyaning ijobiy ta'sirini oshirish uchun qon komponentlarini, uning preparatlarini va qon o'rnini bosuvchilarini differentsiialangan holda quyish mumkin.

Qon quyish xizmatining vazifasi:

- 1.Donorlar safini kengaytirish.
- 2.Qon preparatlarini tayyorlash, konservatsiya qilish va tayyorlash.
- 3.Davolash muassasalarini konservatsiya qilingan qon va qon preparatlari bilan ta'minlash.
- 4.Qon quyish bo'yicha shifokorlar malakasini oshirish, qon quyishga bog'liq asoratlarni tahlil qilish.

Qon quyish usullari

- 1.To'g'ridan to'g'ri qon quyish. Qon donor venasidan retsipyent venasiga bevosita

quyiladi. Bemor og'ir ahvolda bo'lganida bu juda ta'sirchan usul hisoblanadi (to'satdan ko'p miqdorda qonyo'qotish,sepsis,gemofiliya).

2.Bilvosita qon quyish. Donor qoni avval maxsus idishlarga yig'iladi, stabilizatsiya qilinadi, konservalanadi va keyinchalik zarur bo'lganda quyiladi.

Qon quyishning quyidagi usullari mavjud:

1.Venaga qon quyish — ko'p qon yo'qotilganda qon oqim qilib yoki bemorning holati imkon berganda va ko'p miqdorda (1—1,5 l) qon quyish talab etilganda tomchilab (1 daqiqada 20—30 tomchidan) quyiladi; 2.Arteriyaga qon quyish — klinik o'lim holatidagi yoki shunga yaqin holatdagi bemorlarga qon bosim ostida quyiladi;

3.Suyak ichiga qon quyish — qon suyakning g'ovak moddasiga (to'sh suyagi, tovon suyagi, yonbosh suyak qanoti va boshqalarga) quyiladi. Venaga texnik jihatdan qon quyish qiyin bo'lganda, masalan, bolalarda qo'llaniladi;

4.Almashtirib qon quyish — qon olib, o'rniga donor qonini quyish—gemolitik zaharlanganda, ovqatdan va dorilardan za-harlanishlarda qo'llaniladi;

5.Qayta qon quyish (reinfuziya, autotransfuziya) bemorning seroz bo'shliqqa oqib tushgan o'z qonini, masalan, taloq, ichak-tutqich yirilganda quyish (oqib tushgan qon yig'ilib, natriy sitrat shimdirilgan 4 qavat dokadan filtrlab o'tkaziladi);

Qonning yaroqliligini aniqlash.

Qon quyishda oldin unga infeksiya tushgan-tushmaganligi, laxtalar va gemoliz bor-yo'qligini tekshirish zarur. Quyish uchun yaroqli qonda laxtalar bo'lmaydi. Cho'kkan eritrotsitlar ustidagi plazma tiniq va somondek sariq rangda bo'ladi. Gemolizda plazma pushti rangga kiradi («loksimon» qon). Quyi-ladigan konservalangan qonda pasport-etiketka bo'lishi kerak.

Qon quyish texnikasi.

Qon quyish qat'iy tartib bilan amalga oshiriladi. Retsipiyentning qon guruhi va rezus mosligi aniqlanadi. Donor qoni to'g'risida ham ana shunday ma'lumotlar bo'lishi kerak. Qon quyishdan oldin bu ko'rsatkichlar yana aniqlanadi. Mos kelish-kelmaslikka, rezus mosligi va biologik sina-maga bevosita tekshirish o'tkaziladi. Quyishdan oldin qon xona haroratigacha isitiladi.

Qon quyishga ko'rsatmalar:

- 1.Yo'qotilgan qon o'rnini bosish uchun;
- 2.Organizmni zahardan tozalash uchun;
- 3.Travmatik shokni davolash va oldini olish uchun;
- 4.Hayotiy jarayonlarni (gemopoez, regeneratsiya, organizmning immun-biologik himoya kuchlarini oshirish) yaxshilash uchun;
- 5.Terminal holatlarda tiriltirish uchun;
- 6.Qon oqishini to'xtatish uchun.

Qon quyishga moneliklar:

- 1.Yurak-tomirlar sistemasi dekompensatsiyasi;
- 2.O'pkaning faol sili (infiltrativ shakli);
- 3.Allergik kasalliklar (eshakyem, Kvinke shishi, ekzema va boshqalar);
- 4.Tromboz va emboliyalar;
- 5.Jigar va buyrakning o'tkir yallig'lanish kasalliklari (gepatit, nefritlar);

Qon quyishda uchraydigan asoratlar va ularning oldini olish.

Gemotransfuziya shoki. Bu mos kelmaydigan qon quyilishidan keyin yuz beradi (qon guruhini aniqlashdagi xato). Simptomlari: bemorda ko'ks qisilishi paydo bo'ladi, bosh, qorni va beli og'riydi, pulsi tezlashadi, arterial bosim tushib ketadi, ba'zan ortadi, to'satdan siydik ajralishi yoki ichi ketishi mumkin. Bunday hollarda qon quyish darhol to'xtatiladi, plazma, shokka qarshi eritmalar, 5% li glukoza eritmasi quyiladi. Mos keladigan bir xil guruhdagi qon almashtirib quyiladi va paranefral blokada qilinadi. Uremiya paydo bo'lganda me'da yuviladi, «sun'iy buyrak» apparati yordamida gemodializ qilinadi.

Anafilaktik shok. Turli xil oqsillarga sensibilizatsiyalashgan organizmda paydo bo'ladi. Simptomlari: arterial bosimning pasayib ketishi, puls tezlashishi, teri va ko'rinib turadigan shilliq pardalar-ning oqarishi, nafasning yuzaki bo'lishidir. Davo shokka qarshi tadbirlar ko'rish, antigistamin preparatlar qo'llashdan iborat.

Sitrat shoki natriy sitrati ko'p bo'lgan katta miqdordagi qon quyilganda paydo bo'ladi. Klinikasi gemodinamik buzilishlar, talvasaga tushish bilan ifodalanadi. Davolash uchun 10% li kalsiy xlorid eritmasi venaga quyiladi.

Pirogen reaksiya faqat qon emas, balki qon o'rnini bosadigan suyuqliklar quyilganda paydo bo'ladi. Turli xil bakteriyalarning hayot faoliyati mahsulotlari bo'lgan pirogen moddalarning organizmga tushishi sabab bo'ladi.

Mavzuga oid amaliy ko'nikmalar :

Amaliy mashg'ulot nomi: Vena punksiyasi uchun kerakli jixozlarni to'plash, vena punksiya o'tkazish.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Talabalarga vena punksiyasi uchun jixozlar to'plash va o'tkazish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni o'rgatish.

T/R	Bajariladigan ishlar mazmuni	Kerakli jihozlar	Rasmlar, chizmalar, eskizlar	Ishning bajarilish tartibi
1	Qo'llar yuviladi, qo'lqop kiyiladi.	Suyuq sovun, rakovina, oqar suv, salfetka, rezina qo'lqop.		1. Qo'llar suyuq sovun yordamida 6 bosqichda yuviladi va qo'llar quritiladi. 2. Bir martalik steril qo'lqoplar qoidaga rioya qilgan xolda kiyiladi.
2	Jihozlar tayyorlanadi.	Katetr, latok, spirt, sharcha, jgut, rezina qo'lqop.		1. Muolaja uchun kerakli jihozlar tayyorlanadi. 2. Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi. 3. Bemorni muolajaga tayyorlanadi.

3	Muolaj aga tayyor garlik ko'rila di.	Katetr, latok, spirt, sharcha, jgut, rezina qo'lqop,		1. Bemorning bilak yoki kaft ustida vena qon tomiri yaxshi ko'rinib turgan qismi topiladi. 2. Belgilangan sohada Aseptika qoidalariga rioya qilgan holda spirtli sharcha bilan obdon ishlov beriladi. 3. Yelka yoki bilak sohasiga rezina jgut bog'lanadi. 4. Punksiya uchun kerakli razmerda tanlangan katetrni tekshiriladi, paketidan ochib tayyorlanadi. 6. Katetr qopqog'ini olinadi va 45°C ostida vena qon tomiri bo'ylab kiritiladi, katetrda qon ko'rinishi bilan naycha tomir ichiga kiritiladi, igna qismi esa ortiga qaytarib olinadi va buralma tiqin yordamida erkin qolgan qismini berkitiladi.
4	Katetr atrofiga bog'lam qo'yiladi.	Steril salfetka, leykoplaster, qaychi.		1. Katetr atrofi spirtli sharcha yordamida abrabotka qilinadi. 2. Katetr atrofi steril salfetka bilan yopiladi va leykoplaster yordamida yon atroflarini yopgan holatda bog'lam qo'yiladi.
5	Katetr tekshiriladi.	NaCl ning 0,9%li izatonik eritmasi, shpirist 2ml		1. Tomir ichiga kiritilgan katetrni tekshirib ko'rish uchun 2ml li shpiristga 0,9 %li NaCl eritmasidan shimdiriladi. 2. Buralma tiqin ochiladi va izatonik eritma yuboriladi. 3. Eritma katetr orqali ravon va og'riqsiz ketsa katetr to'g'ri qo'yilgan hisoblanadi. 4. Agarda suyuqlik yuborish vaqtida og'riq paydo bo'lsa yoki suyuqlikni yuborishda qiyinchilik yuzaga kelsa katetr qo'yishda hatolik bor deb baxolanadi va bunday hollarda katetr almashtiriladi.


6.	Katetr nazorat qilib boriladi.	Leykoplaster, steril salfetka.		1. Bemorga qo'yilgan katetr 3kun ya'ni 72 soatgacha yaroqli hisoblanadi. 2. muddat o'tgach katetr olib tashlanadi, lozim bo'lsa yuqoridagi kabi yana qayta qo'yiladi.
7	Ish yakunlanadi	Vetosh, chiqindi uchun konteyner.		1. Ish joyi tartibga keltiriladi. 2. Ishlatilgan barcha buyumlar zararsizlantiriladi. 3. Navbatdagi muolaja uchun ish joyi va steril stol tayyorlab qo'yiladi.

Amaliy mashg'ulot nomi: Qon quyish uchun sistema tayyorlash va qon quyish.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Qon quyish uchun sistema tayyorlash va qon quyish bo'yicha amaliy ko'nikmalarini shakillantirish.

T/R	Bajariladigan ishlar mazmuni	Kerakli jihozlar	Rasmlar, chizmalar, eskizlar	Ishning bajarilish tartibi
1	Qo'llar yuviladi va qo'lqop kiyiladi.	Suyuq sovun, rakovina, oqar suv, salfetka, rezina qo'lqop.		1. Qo'llar suyuq sovun yordamida 6 bosqichda yuviladi va qo'llar quritiladi. 2. Bir martalik steril qo'lqoplar qoidaga rioya qilgan xolda kiyiladi.
2	Kerakli jihozlar tayyorlanadi.	Steril sharcha, salfetka, spirt, transfuziya uchun sistema, qon.		1. Muolaja uchun kerakli barcha jihozlar tayyorlanadi. 2. Aseptika qoidalariga to'liq rioya qilinadi. 3. Bemorga muolaja maqsadi to'liq tushuntiriladi.
3	Muolaja uchun tayyorgarlik ko'riladi.	Stabilizatsiya qilingan qon, Sistema, steril sharcha, spirt, jgut.		1. Quyilishi kerak bo'lgan qonning sifati, yaroqlilik muddati, holati, qon guruhi, rezus omiliga, qadoqning butunligiga e'tibor beriladi. 2. Donor va retsipientning qon guruhi, Rh omili tekshiriladi, mos kelishligiga ishonch hosil qilinadi.

				3. Retsipientga quyilishi kerak bo'lgan donor qoni tana haroratida isitiladi. 4. 200-300ml isitilgan izatonik eritma 0,9%li NaCl eritmasi qonga qo'shiladi va bir hil emulsiya holatiga keltiriladi.
4	Qon quyish uchun sistema tayyorlanadi.	Transfuziya uchun sistema, steril sharcha, spirt, jgut, steril qisqich, pinset.		1. Sistemani olib tekshirib olinadi. 2. Kanservalangan qonning Sistema uchligi kiritiladigan qismiga pinset yordamida spirtli sharcha bilan Aseptik ishlov beriladi. 3. Sistema uchligini qon qopchasining Sistema kiritish uchun ajratilgan qismiga kiritiladi. 4. Sistema shtativga ilinadi. 5. Sistemaning qopchasi qon bilan 3/2 qismigacha to'ldiriladi. Buralma vintelni ochib Sistema naychasida havo qoldirmasdan igna qismigacha qon bilan to'ldiriladi.
5.	Qon quyish boshlanadi.	Spirt, steril sharcha, tanometr.		1. Yaxshi ko'rinib turgan vena qon tomiri tanlanadi. 2. Spirtli sharcha yordamida inyeksiya qilinadigan sohaga Aseptik ishlov beriladi. 3. Yelka qismiga jgut bog'lanadi. 4. Sistema uchidagi ignaning kesik uchini yuqoriga qaratib 15°C ostida vena qon tomiriga kiritiladi. 4. Vena qon tomiriga tushgandan so'ng buralma vintel ochiladi. 5. Biologik sinama o'tkaziladi.

				6. Bemor qonni yaxshi qabul qilsa qolgan qonni daqiqasiga 40-60 tomchidan yuboriladi.
6.	Qon quyish yakunlanadi.	Spirt, steril sharcha, tanometr.		1. Qon quyish vaqtida bemorning A/B, pulsi, temperaturasi, nafas olishi nazorat qilib boriladi. 2. Qon quyib bo'lingach qopchada 10-15ml miqdorda qon qoldiriladi va muzlatkichda 4-6°Cda 72-soat davomida saqlanadi.
7.	Muolaja yakunlanadi.	Steril salfetka, leykoplaster, spirt, latok, konteyner(c hiqindilar uchun)		1. Qon quyish yakunlangach igna tomirdan olinadi va o'rni spirtli sharcha yordamida Aseptik ishlov beriladi. 2. Inyeksiya o'rni steril salfetkada yopiladi va leykoplasterli boglam qo'yiladi. 3. Ishlatilgan barcha buyumlar va sitema bo'laklarga bo'lmasdan "B" turdagi chiqindilar uchun konteynerga tashlanadi va qoidaga muvofiq yo'qotiladi.
8.	Bemor nazoratga olinadi.	Tanometr, fanendaskopp termometr, kuzatuv varaqasi.		1. Qon quyib bo'lingach bemorni 2-soat davomida kuzatib boriladi. 2. Gemodinamik ko'rsatkichlar nazorat qilinadi. 3. Nojo'ya holatlar aniqlanganda zudlik bilan shifokorga murojat qilinadi.

Amaliy mashg'ulot nomi: Qon quyishga ko'rsatma va moneliklarni aniqlash..

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Qon quyishga ko'rsatma va moneliklari aniqlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarini shakillantirish va o'rgatish.

T/R	Bajariladigan ishlar mazmuni	Kerakli jihozlar	Rasmlar, chizmalar, eskizlar	Ishning bajarilish tartibi
1.	Qo'llar yuviladi, qo'lqoplar kiyiladi.	Suyuq sovun, suv, rakovina, salfetka, rezina qo'lqop.		1.Qo'llar suyuq sovun yordamida 6 bosqichda yuviladi va qo'llar quritiladi. 2. Bir martalik steril qo'lqoplar qoidaga rioya qilgan xolda kiyiladi.
2	Qon quyishga ko'rsatma	Qon o'rnini bosuvchi suyuqliklar.		3.Qon quyish asosan organizmdan kuchli qon ketishi jarayonlarida, organizim ko'p qon yo'qotganda bajariladi. 4.Qon quyish asosan gemoragik shok holatlarda amalga oshiriladi.
3	Qon quyishga monelik holatlar.	Dori vositalari.		5.Qon quyishga monelik qiluvchi holatlarni aniqlanadi. 6.Qon quyishga jigar, buyrak yetishmovchiligi, yurak qon tomir yetishmovchiligi monelik qiluvchi holat deb hisoblanadi. 7.Qon guruhi va rezus omili mos kelmagan qonni quyish ham monelik hisoblanadi.
4	Muolajani amalga oshirish	Dori vositalari, sistema		7.Organizim ko'p qon yo'qatishi natijasida qo'shimcha gipovolemik shok holati yuzaga keladi. 8.Muolaja uchun qulay sharoit yaratiladi. Ishlatiladigan jihozlar hamasi steril holda bo'lishi lozim. Qon quyishdan avval biologik sinama o'tkaziladi. 9.Qon quyishda biologik sinama yaxshi natija bersa qon quyish muolajasi amalga oshiriladi.

5	Muolaja so'ngida	Dez eritma.		10. Muolaja so'ngida bemorga tinch qulay sharoit yaratiladi. Ishlatilgan jihozlar zararsizlantiriladi. Bemorni hayotiy ko'rsatkichlari nazorat ostiga olinadi.
---	------------------	-------------	---	--

Mavzu. Qon ketishini vaqtincha to'xtatish usullari. Qon ketganda yuz beradigan asoratlari va ularda 1-tibbiy yordam.

Tinglovchi bilishi kerak.

1. Qon ketishi va uning turlari haqida tushuncha.
2. Qon to'xtatish usullari va qon to'xtatuvchi dori vositalari.
3. Gemorragik shok haqida tushuncha.

Tinglovchi bajara olishi kerak.

1. Qon ketishini vaqtinchalik to'xtatish usullari.
2. Barmoq bilan bosib qon to'xtatish, burama jgut, rezina jgut, maxsus jgut qo'yish usullari.
3. Qon keishi sababli yuzaga kelgan asoratlarda shoshilinch yordam ko'rsatish.


Mavzu bayoni.

Qon ketishi-deb qonning qon tomir o'zanidan ya'ni qonni qon tomirlardan tashqariga oqib chiqishiga aytiladi. Qon ketishiga mexanik va neyrotrofik omillar sabab bo'ladi. Qon oqishiga ko'ra esa tashqi va ichki turlari farqlanadi. Qon tomirlarning shikastlanishiga qarab esa Arterial, venoz, kapilliyar va parenximatoz qon ketishlari farqlanadi.

Qon oqishini to'xtatishda vaqtincha va uzil kesil usullardan foydalaniladi. Vaqtincha qon to'xtatishda barmoq bilan bosib, tomir bo'ylab bosib turish, bo'g'imlardan bukib, burama jgut qo'yib, rezina jgut qo'yib, maxsus jgut qoyish usullardan foydalaniladi.

Uzil-kesil qon to'xtatishda esa mexanik, kimyoviy, fizik va biologik usullardan foydalaniladi: qon tomirni tikish, bog'lash, qon to'xtatuvchi dori vositalarini qo'llash, qon tomirlarni kuydirish, qon va qon preparatlaridan foydalangan xolda amalga oshiriladi.






Mavzuga oid amaliy ko'nikmalar :

Amaliy mashg'ulot nomi: Tashqi qon ketishida burama jgut qo'yish.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Tashqi qon ketishida burama jgut qo'yish bo'yicha amaliy ko'nikmalarini shakillantirish.

T / R	Bajariladigan ishlar mazmuni	Kerakli jihozlar	Rasmlar, chizmalar, eskizlar	Ishning bajarilish tartibi
1	Qo'llar yuviladi, qo'lqop kiyiladi.	Suyuq sovun, rakovina, oqar suv, salfetka, rezina qo'lqop.		1.Qo'llar suyuq sovun yordamida 6 bosqichda yuviladi va qo'llar quritiladi. 2. Bir martalik steril qo'lqoplar qoidaga rioya qilgan xolda kiyiladi.
2	Qon oqishi baxolanadi .			1.Qon pulsatsiya bilan otilib oqayotgan bo'lsa Arterial qon ketishi bo'ladi. 2.Qon buloqsimon bo'lib nisbatan sekin oqayotgan bo'lsa venoz qon ketishi bo'ladi. 3.Jaroxat yuzasidan tomchilab shudring kabi qon oqayotgan bo'lsa kapillyar qon ketishi bo'ladi.

3	Jgut qo'yiladi.	Doka, bog'ich, qattiq taxta yoki temir bo'lagi.	Наложение жгута (закрутки) 	1. Jaroxatdan yuqori soxaga doka o'rab olinadi. 2. Birinchi bog'ichni xalqa qilib bog'lab olinadi va orasiga taxta bo'lakchasi kiritiladi. Taxta bo'lakchasi bir tomonga yo'naltirib buraladi toki qon oqishi to'xtagunga qadar. 4. To'liq burab bo'lingach ikkinchi bog'ich yordamida mustaxkamlab bog'lab qo'yiladi va jgut qo'yilgan vaqtni yozib jgutga qistirib qo'yiladi.
4	Bemorni kasalxona ga olib boriladi.	Tez yordam mashinasi, zambil.		1. Bemor xolati baxolanadi, zudlik bilan kasalxonaga olib boriladi va kerakli yordam ko'rsatiladi.

Amaliy mashg'ulot nomi: Arteriyadan qon ketganda rezina jgut qo'yish.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Arteriyadan qon ketganda rezina jgut qo'yish bo'yicha amaliy ko'nikmalarini shakillantirish.


T / R	Bajariladigan ishlar mazmuni	Kerakli jihozlar	Rasmlar, chizmalar, eskizlar	Ishning bajarilish tartibi
1	Qo'llar yuviladi va qo'lqop kiyiladi.	Suyuq sovun, rakovina suv, rezina qo'lqop.		1. Qo'llar suyuq sovun yordamida 6 bosqichda yuviladi va qo'llar quritiladi. 2. Bir martalik steril qo'lqoplar qoidaga rioya qilgan xolda kiyiladi.
2	Kerakli jixozlar tayyorlanadi.	Maxsus rezina jgut, doka.		1. Arteriyadan qon keteyotgan bo'lsa jgut jaroxatdan yuqoriga, qon venadan oqayotgan bo'lsa jaroxatdan quyi qismiga jgut bog'lanadi.

3	Jgut bog'lanadi.	Doka, maxsus rezina jgut, ruchka qog'oz.	Технические аспекты наложения жгута	1.Qon ketishi xarakteri aniqlanadi. 2.Jaroxatdan yuqori qismga doka o'rab olinadi va rezina jgutni o'rash boshlanadi. 3.Avval maksimal xolatda jgut tortib olinadi va navbatma navbat o'rash boshlanadi, oxirida jgutning maxsus tugmasi qadalib mustaxkamlanadi va jgut qo'yilgan vaqt belgilanadi.
4	Bemorni kasalxonaga olib boriladi.	Tez yordam mashinasi zambil.		1.Jaroxatga Aseptik bog'lam qo'yiladi. 2.Jgut to'g'ri qo'yilganda qon oqishi va puls to'liq to'xtaydi, teri rangi oqaradi. 3.Bemor zudlik bilan kasalxonaga olib boriladi.

Amaliy mashg'ulot nomi:Arteriyadan qon ketganda maxsus jgut qo'yish.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Arteriyadan qon ketganda maxsus rezina jgut qo'yish bo'yicha amaliy ko'nikmalarini shakillantirish.

T/R	Bajariladigan ishlar mazmuni	Kerakli jihozlar	Rasmlar, chizmalar, eskizlar	Ishning bajarilish tartibi
1	Qo'llar yuviladi va qo'lqop kiyiladi.	Suyuq sovun, rakovina suv, rezina qo'lqop.		1.Qo'llar suyuq sovun yordamida 6 bosqichda yuviladi va qo'llar quritiladi. 2. Bir martalik steril qo'lqoplar qoidaga rioya qilgan xolda kiyiladi.
2	Kerakli jixozlar tayyorlanadi.	Maxsus rezina jgut, doka.		1.Arteriyadan qon keteyotgan bo'lsa jgut jaroxatdan yuqoriga, qon venadan oqayotgan bo'lsa jaroxatdan quyi qismiga jgut bog'lanadi.

3	Jgut bog'lanadi.	Doka, maxsus rezina jgut, ruchka qog'oz.	 	1.Qon ketishi xarakteri aniqlanadi. 2.Jaroxatdan yuqori qismga doka o'rab olinadi va maxsus jgutni yon tugmachasi bosiladi. 3.Maxsus jgutning tasmasi tortiladi. 4.Tasma jgutga kiritiladi va buralma vintel yordamida tasma qisqartiriladi va to'liq mustaxkamlanadi va jgut qo'yilgan vaqt belgilanadi. 5.Qo'yilgan jgut samaradorligi baxolanadi, oqayotgan qon to'xtaydi, teri rangi oqaradi.
4	Bemorni kasalxona ga olib boriladi.	Tez yordam mashi-nasi zambil.		1.Jaroxatga Aseptik bog'lam qo'yiladi. 2.Jgut to'g'ri qo'yilganda qon oqishi va puls to'liq to'xtaydi, teri rangi oqaradi. 3.Bemor zudlik bilan kasalxonaga olib boriladi.

Mavzu. Qon ketishini vaqtincha to'xtatish usullari. Qon ketganda yuz beradigan asoratlari va ularda 1-tibbiy yordam.

Tinglovchi bilishi kerak.

- 1.Qon ketishi va uning turlari haqida tushuncha.
- 2.Qon to'xtatish usullari va qon to'xtatuvchi dori vositalari.
- 3.Gemorragik shok haqida tushuncha.

Tinglovchi bajara olishi kerak.

- 1.Qon ketishini uzil kesil to'xtatish usullarini bajarishda bog'lov xonasi va operatsiya xonasida qatnashish.
- 2.Bemorlarni laborator va endoskopik tekshiruvlarga tayyorlash.
- 3.Laborator taxlil uchun venadan qon olish

Mavzu bayoni.

Qon ketishi deb, qon tomirlarining mexanik shikastlanishi, biror kasallik oqibatida yemirilishi yoki qon ivish tizimining buzilishi, o'tkazuvchanlikning oshib ketishi natijasida, qon tomirlaridan tashqi muhitga, atrof to'qimalarga va ichki bo'shliqqa qon chiqishiga aytiladi. Qon ketish ko'pincha-to'qima va organlarga mexanik ta'sir etish natijasida ro'y beradi (tabiiy ofat, urush, transportdan shikastlanish, jarrohlik operatsiyalari ta'sirida). Katta qon tomiri shikastlansa, shikastlangan kishining hayoti xavf ostida qoladi. Qon ketishi qon tomiri devorining biror kasallik oqibatida yemirilishi esa tomirlar yoki atrof to'qimalarining kasallanishi sababli yuz berib,

ateroskleroz, yiringli infeksiya, spetsifik yallig'lanish, o'sma va nekroz (jonsizlanishi) kasalliklari qon tomirlarining anatomik buzilishiga olib keladi.

I. Qon ketishi kelib chiqishiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1. Travmatik turi-odam yarador bo'lganda, biror joyi urilganda, shikastlanishlar oqibatida vujudga keladi.

2. Jarrohlik turi-operatsiya qilinganda qon tomirlar ma'lum darajada shikastlanadi va qon oqadi.

II. Shikastlangan qon tomirning anatomik va fiziologik holatiga qarab:

1) arterial 2) venoz; 3) aralash; 4) kapillyar 5)

parenximatoz. **III. Klinik holatiga qarab:** 1) tashqi. 2) ichki 3) yashirin qon oqishi farqlanadi.

Qon oqishini quyidagi usullar yordamida to'xtatish mumkin:

1) qon oqishining

o'z-o'zidan to'xtatishi;

2) qon oqishini vaqtincha to'xtatish;

3) qon oqishini butunlay to'xtatish.

Mexanik usullar:

1. Qon tomirini bir-biriga ulab tikish usuli.

2. Qon tomirini kesilgan ikkala uchini tikib tashlash usuli – to'qima bilan birgalikda.

3. Ligatura bilan bog'lab qo'yish.

4. Qon tomirini burash.

5. Tamponada qilish usuli.

6. Transplantat qo'yish.

Fizik usullar:

1. Elektr toki yordamida kuydirish.

2. Lazer nurini qo'llash.

3. Issiqlik yordamida.

4. Sovuqlik yordamida.

Kimyoviy usullar:

1. Kal'siy xlorid 10% eritma v/v ichishga va mahalliy qo'llash.

2. Vikasol (vitamin K/1,0 v/m va ichishga 0,3x3 marta).

3. Aminokapron kislotasining 5% eritmasi – 100,0 v/v.

4. Vodorod peroksidi, adrenalin.

Biologik usullar:

1. Qon quyish usuli (gemostatik doza 50-75-100 ml);

2. Eritrotsitar massa;

3. Trombotsitar massa;

4. Fibrinogen;




5. Gemostatik pukan (gubka) qo'llaniladi, gemostatik – marlya.

Mavzuga oid amaliy ko'nikmalar :

Amaliy mashg'ulot nomi: Qon ketishini mexanik to'xtatish (tomirni bog'lash, tomirni tikish) uchun kerakli xirurgik jixozlarni to'plash.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Qon ketishini mexanik to'xtatish (tomirni bog'lash, tomirni tikish) uchun kerakli xirurgik jixozlarni to'plash bo'yicha amaliy ko'nikmalarini shakillantirish.

T/R	Bajariladigan ishlar mazmuni	Kerakli jihozlar	Rasmlar, chizmalar, eskizlar	Ishning bajarilish tartibi
1	Qo'llar yuviladi.	Suyuq sovun, rakovina, oqar suv, salfetka.		1.Qo'llar suyuq sovun yordamida 6 bosqichda yuviladi va steril salfetka yoki steril sochiq yordamida qo'llar quritiladi.
2	Qo'llar ga ishlov beriladi.	Steril salfetka, sharcha, kortsang, pinset, 96% li spirt, 1% li yod.		1.O'ng va chap qo'l steril salfetka yordamida bosib bosib quritiladi. 2.Steril sharchani 96% li spirtga botirib o'ng va chap qo'lning tirsak, bilak va kaft qismigacha 3 bosqichda Aseptik ishlov beriladi.
3.	Steril qo'lqop kiyiladi.	Xirurgik steril qo'lqop, 96% li spirt steril salfetka.		1.Avval chap qo'lga bir martalik steril qo'lqop qoidaga mos ravishda kiyiladi. 2.Yuqoridagi qoidaga asosan o'ng qo'lga steril qo'lqop kiyiladi. 3.Har ikkala qo'lga qo'lqoplarni kiyib bo'lgach tekislanadi va yana bir bor 96% li spirt bilan sharcha yordamida Aseptik ishlov beriladi.
4.	Xirurgik jixozlar tayyorlanadi.	Tomirni bog'lash va tikish uchun xirurgik nabor, steril stol, spirt, bog'lov materiallari, chok iplari,	 	1.Operatsion hamshira steril stolga operatsiya uchun kerakli xirurgik asboblarni bixsdan olib teradi. 2.Xirurglar operatsiya uchun tayyorgarlik ko'radilar. 3.Operatsiya vaqtida hamshira xirurglarga xirurgik jihozlarni o'z vaqtida olib berib turadi.

5	Operatsiya bajariladi .	Xirurgik jihozlar to'plami, steril stol, spirt, bog'lov materiallari, chok iplari, oqlik, steril xalat.		1. Batamom qon to'xtatishda quyidagi usullarni qo'llash mumkin bo'ladi. 2. Qon tomirini bir-biriga ulab tikish usuli. 3. Qon tomirini kesilgan ikkala uchini tikish usuli to'qima bilan birgalikda. 4. Ligatura bilan bog'lab qo'yish. 5. Qon tomirini burash. 6. Tamponada qilish usuli. 7. Transplantat qo'yish.
6	Operatsiya bajariladi .	Xirurgik jihozlar to'plami, steril stol, spirt, bog'lov materiallari, chok iplari, oqlik, steril xalat.	Наложение зажима на поврежденную артерию и лигирование артерии в ране 	1. Tomir jarohatiga e'tibor qaratiladi. 2. Qon tomirini bir-biriga ulab tikish usuli. 3. Qon tomirini kesilgan ikkala uchini tikish usuli to'qima bilan birgalikda. 4. Ligatura bilan bog'lab qo'yish. Qon tomirini burash. 5. Tamponada qilish. 6. Transplantat qo'yish.
7	Operatsiya yakunlanadi	Xirurgik jihozlar to'plami, steril stol, spirt, bog'lov materiallari, chok iplari, oqlik, steril xalat.		1. operatsiya jarayoni yakunlangach jarohatga chok solinadi. 2. Jarohatga Aseptik ishlov beriladi. 3. Jarohat yuzasiga bintli yoki leykoplasterli Aseptik bog'lam qo'yiladi. 4. Bemor intensiv kuzatuv bo'limiga olinadi va nazorat qilinadi.

8	Ishlatilgan buymlar zararsizlantirildi.	Tog'ora, Cl li dez eritma, "A", "B" turdagi konteyner, rezina qo'lqop.		1. Operatsiya yakunlangach barcha ishlatilgan buymlar guruhlariga ajratilib konteynerlarga tashlanadi. 2. Xirurgik asboblarning esa Cl eritmada zararsizlantiriladi va sterillizatsiyaga yuboriladi.
---	---	--	---	--

Amaliy mashg'ulot nomi: Qon ketganda muzli haltachadan foydalanib qon to'xtatish.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Qon ketganda muzli haltachadan foydalanib qon to'xtatish bo'yicha amaliy ko'nikmalarini shakillantirish.

T / R	Bajariladigan ishlar mazmuni	Kerakli jihozlar	Rasmlar, chizmalar, eskizlar	Ishning bajarilish tartibi
1	Qo'llar yuviladi, qo'lqop kiyiladi.	Suyuq sovun, rakovina, oqar suv, salfetka, qo'lqop.		1. Qo'llar suyuq sovun yordamida 6 bosqichda yuviladi va qo'llar quritiladi. 2. Bir martalik steril qo'lqoplar qoidaga rioya qilgan xolda kiyiladi.
2	Qon oqishi baxolanadi.			1. Qon pulsatsiya bilan otilib oqayotgan bo'lsa Arterial qon ketishi bo'ladi. 2. Qon buloqsimon bo'lib nisbatan sekin oqayotgan bo'lsa venoz qon ketishi bo'ladi. 3. Jaroxat yuzasidan tomchilab shudring kabi qon oqayotgan bo'lsa kapillyar qon ketishi bo'ladi. 4. Tashqi qon ketish belgilari yo'q bo'lsa ichki qon ketishi turi baxolanadi.
3	Jihozlar tayyorlanadi.	Doka, sochiq, muz bo'laklari, sovuq suv.		1. Muzli haltacha butunligi tekshiriladi. 2. Muz bo'laklarini idishga solinadi va ustidan iliq suv quyiladi (qirralarini tekkislash uchun). 3. Muzli haltachaning 3/2 qismigacha sovuq suv quyiladi va idishdagi muz bo'laklari solinadi,

				qopqog'i mustaxkam qilib berkitiladi. 4.Muzli haltachaga suv quyilishiga saba muz bo'laklari solingach yuza bir xil sathda bo'lishi uchun.
4	Qon ketayotgan sohaga muzli haltacha qo'yiladi.	Doka, sochiq, muz bo'laklari, sovuq suv.		1.Muz haltachani yumshoq sochiqni 4 qavat qilib taxlab o'raladi. 2.Sochiq bilan o'ralgan muzli xaltacha qon ketayotgan sohaga qo'yiladi.
5	Bemor holati nazorat qilinadi.	Tanometr, fanendaskop		1.Bemorning gemodinamik ko'rsatkichlari nazorat qilib baxolanadi. 2.Arterial bosim, puls, tempratura, nafas olishi aniqlanadi.
6	Bemorni kasalxonaga olib boriladi.	Tez yordam mashinasi, zambil.		1.Bemor xolati baxolanadi, zudlik bilan kasalxonaga olib boriladi. 2.Bemor shifoxanaga olib borilgach shifokorlar tomonidan kerakli yordam ko'rsatiladi.

Nazorat savollari.

- 1.Xirurgiya so'zining ma'nosi?
- 2.Xirurgik asboblarning nechta guruxga bo'linadi?
- 3.Xirurgik statsionar tarkibiga qaysi xonalar kiradi?
- 4.Operatsiya xonasining tozalash bosqichlarini ayting?
- 5.Xirurgik bo'lim tarkibiga kiruvchi xonalar qaysilar?
- 6.Qabulxona ish faoliyatini qanday tashkil qilinadi?
- 7.Xirurgiya bo'limida bemorlar uchun palatalarga qancha maydon ajratiladi?
- 8.Operatsion blok tarkibiga kiruvchi xonalar qaysilar?
- 9.Operatsiya xonasining jixozlanishi?
- 10.Xirurgik asboblarning guruxlarini ayting?
- 11.Operatsiya xonasini tozalashda qo'llaniladigan tozalovchi eritmalar?
- 12.Aseptika va uning turlarini izohlab bering.
- 13.Antiseptika va uning turlarini izoxlang.
- 14.Sterilizatsiya va uning turlarini ayting.
- 15.Steril stol tayyorlash bosqichlarini ko'rsatib bering.
- 16.Operatsion maydonni gigienik va tibbiy tayyorlash bosqichlarini ayting.
- 17.Operatsiya deb nimaga aytiladi?
- 18.Operatsiya davrlariga ko'ra qaysi guruxlarga bo'linadi?
- 19.Vaqtiga ko'ra operatsiya turlarini ayting?
- 20.Bajarilishiga operatsiya turlariga izox bering?
- 21.Xususiyatiga ko'ra operatsiya turlarini izohlab bering?
- 22.Bemorlarni operatsiyaga tayyorlashda qanday jixatlarga ahamiyat berilishi kerak?
- 23.Operatsion maydon deganda nimani tushunasiz?
- 24.Og'riqsizlantirish turlarini ayting?
- 25.Premidikatsiya nima?
- 26.Og'riqsizlantirish uchun qanday dori vositalari qo'llaniladi?
- 27.Operatsiyadan keyingi davrning fazalariga izoh bering?
- 28.Operatsiyadan keyingi davrda kuzatiladigan asoratlar?
- 29.Operatsiyadan keyingi davrda bemorlarning hayotiy ko'rsatkichlarini baxolash?
- 30.Operatsiyadan keyingi davrda bemorlarni ovqatlantirish rejimi?
- 31.Operatsiyadan keyingi davrda bemorlarni harakatlantirish rejimi?
- 32.Bog'lam qo'yish to'g'risidagi ta'limot?
- 33.Bog'lam qo'yishning umumiy qoidalarini ayting?
- 34.Bog'lam turlari va tiplarini ayting?
- 35.Bosh sohasiga qo'yiladigan bog'lam turlari va bog'lash qoidalarini?
- 36.Qo'l va yelka sohasiga qo'yiladigan bog'lam turlari va bog'lash qoidalarini?
- 37.Qorin va ko'krak sohasiga qo'yiladigan bog'lam turlari va bog'lash qoidalarini?
- 38.Oyoq va chanoq, oraliq sohalariga qo'yiladigan bog'lam turlari va bog'lash qoidalarini?
- 39.Yumshoq bog'lam qo'yish uchun kerakli jihozlarni to'plash?
- 40.Qon guruhi va rezus omil to'g'risida ma'lumot bering?
- 41.Qon guruhi va rezus omilni aniqlash usuli?
- 42.Individual va biolaogik moslikni aniqlash?

- 43.Qon quyish uchun ko'rsatma va moneliklarni baxolash?
- 44.Qon quyish uchun qonning yaroqliligini aniqlash?
- 45.Qon quyish uchun Sistema montaj qilish?
- 46.Qon quyish natijasida yuzaga kelgan asoratlarda shoshilinch yordam?
- 47.Qon ketishi turlari, sabablari va belgilari?
- 48.Qon ketishini uzil kesil to'xtatish usullari?
- 49.Qon ketishini vaqtincha to'xtatish usullari?
- 50.Qon ketishi natijasida yuzaga kelgan asoratlarda shoshilinch yordam?

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.A.J.Hamrayev "Xirurgiya va reanimatsiya asoslari"
- 2.M.Bekmuradova "Jarrohlik va reanimatsiyada hamshiralik asoslari"
- 3.M.F.Ziyayeva "Jarrohlikda hamshiralik ishi"
- 4.O.Ibragimov "Jarrohlik va reanimatsiya asoslari"
- 5.O'.Oripov "Umumiy xirurgiya"
- 6.A.J.Hamrayev "Xirurgiya"
- 7.B.Babadjanov "Umumiy xirurgiya"

Foydalanish uchun Internet saytlari.

- 1.Googol ilovasi- mymedik.uz sayti.
- 2.Googol ilovasi-dnk.uz sayti.
- 3.Googol ilovasi-nukleus.uz sayti. Matn va video variantda.

**Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va
ixtisoslashtirish markazi Andijon filiali o'qituvchisi Sodiqova.G.I. ning
“Zamonaviy jarrohlikda hamshiralik ishi” yo'nalishidan Nazariy va amaliy
mashg'ulotlar bo'yicha uslubiy qo'llanmasiga**

Taqriz.

Ushbu o'quv uslubiy qo'llanma **“Zamonaviy jarrohlikda hamshiralik ishi”** yo'nalishi o'quv dasturi asosida yaratilgan bo'lib, o'quv uslubiy qo'llanma jarrohlik bo'limi hamshiralari, operatsion hamshiralari, bog'lov honasi hamshiralari uchun mo'ljallangan.

O'quv uslubiy qo'llanmada **“Zamonaviy jarrohlikda hamshiralik ishi”** yo'nalish i bo'yicha mavzular to'plami, Tinglovchilar bilishi va bajara olishi kerak bo'lgan muolajalar to'plami, ko'nikmalar, shifokorgacha bo'lgan shoshilinch yordamlar qisqa va tushunarli qilib berilgan. Tinglovchilarni doimiy ravishda amaliy bilimlarini shakllantirishga, takomillashtirishga, rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Ushbu o'quv uslubiy qo'llanmada xirurgik davolash xususiyatlari, aseptika va antiseptika, operatsiyadan oldingi va keying davr, desmurgiya, qon ketishi va to'xtatish usullari, qon guruxi va rezus faktorni aniqlash va shikastlanish sindromi bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni batafsil keltirilgan va talabalarni bilimlarini mustahkamlash maqsadida tuzib chiqilgan.

Tibbiyot soxasida faoliyat yuritayotgan barcha tibbiy xodimlar uchun qulay bo'lgan ushbu qo'llanma, yetuk va malakali kadrlarni yetishtirishda, amaliy mexnat faoliyatida kerakli bo'lgan muolajalar dasturi bo'la oladi. Ushbu o'quv uslubiy qo'llanma barcha yo'nalishdagi talabalarga ta'lim jarayoniga tadbqiq etish uchun tavsiya etiladi.

M.R.Aliboyev

2- fakultet va gospital jarrohlik kafedrası
t.f.n. katta o'qituvchisi